

**O`ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O`RTA MAXSUS TA`LIM
VAZIRLIGI
NAMANAGAN DAVLAT UNIVERSITETI
TARIX FANLARI KAFEDRASI**

Najmiddinov Qodirjon Murodjon o'g'li

Namangan bozorlari tarixi
mavzusidagi
BITIRUV MALAKAVIY ISHI

Ilmiy rahbar:

t.f.d.,prof. A. N. Rasulov

NAMANGAN - 2014

MUNDARIJA:

KIRISH.....	3-7
I. BOB. QO'QON XONLIGI, ROSSIYA IMPERIYASI VA SOVET HOKIMIYATI DAVRIDA NAMANGAN BOZORLARI.....	8-22
1.1. Qo'qon xonligi davrida Namangan bozorlari faoliyati.....	8-18
1.2. Rossiya imperiyasi va sovet hokimiyati davrida Namangan bozorlari.....	18-22
II. BOB. MUSTAQILLIK YILLARIDA NAMANGAN VILOYATI BOZORLARINING RIVOJLANISHI.....	23-46
2.1. Mustaqillik yillarida bozorlar faoliyatini tartibga solishga oid O'zbekiston Respublikasi Prezidenti va Hukumatining Farmon va qarorlari va savdo inshooatlarini tashkil etish qoidalari.....	23-34
2.2. Mustaqillik yillarida Namangan bozorlari faoliyatiga bir nazar.....	34-46
XULOSA.....	47-48
FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO`YXATI.....	49-50

KIRISH

Mavzuning dolzarbligi. 1991 yilga kelib xalqimizning asriy orzulari ro'yobga chiqdi, O'zbekiston mustaqillikka erishdi. "Bugun O'zbekistonimiz bosib o'tgan mustaqil taraqqiyot yolini xolisona baholar ekanmiz, o'tgan davr mobaynida biz erishgan, dunyo jamoatchiligi tan olgan olamshumul yutuq va marralar, avvalambor izchil rivojlanayotgan iqtisodiyotimiz va uning barqaror o'sish sur'atlari, aholi farovonligining yildan yilga oshib, jahon hamjamiyatida mamlakatimiz obro'-e'tiborining tobora yuksalib borayotganligi – bularning barchasi Konstitutsiyamizning asosiga qo'yilgan, chuqur va puxta o'ylangan maqsad, prinsip va normalarning hayotbaxsh samarasi desak hech qanday mubolag'a bo'lmaydi"¹.

O'zbekiston mustaqillikka erishganidan so'ng o'tgan yillar ichida o'ta mashaqqatli va sharaflı yo'lni bosib o'tdi. Buni oldindan yaxshi bilgan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti I. A. Karimov ozodlikka erishgan dastlabki kunlarimizda "O'z istiqlol va taraqqiyot yo'limiz – bu gul bilan qoplangan yo'l emas, bu totalitarizm merosidan xalos bo'lish va poklanish, mafkuraviylik illati yetkazgan ziyon-zahmatlarni bartaraf etishning qiyin, uzoq davom etadigan yo'lidir", deb aytgan so'zlari zamirida qanchalik chuqur hayotiy ma'no borligini yana bir bor anglaymiz².

O'zbekistonda yosh avlodni har tomonlama sog'lom va barkamol ruhda tarbiyalash maqsadida qator islohotlar amalga oshirilib kelinmoqda. Shu maqsadda "O'zbekiston Respublikasida yoshlarga oid davlat siyosatining asoslari to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi Qonuni va O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2014 yil 6 fevraldagi PQ-2124-sonli "O'zbekiston Respublikasida

¹ Karimov I. A. Mamlakatimizni modernizatsiya qilish ijlilini izchil davom ettirish – taraqqiitimizning muhim omilidir. Prezident I. A. Karimovning Ўzbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi qabul qilinganining 18 iylligiga baqishlangan tantanali marosimdagı nутqi. // Ishonch. 2010 yil 8 dekabr.

² Karimov I. A. O'zbekiston mustaqillikka erishish ostonasida. – Toshkent: O'zbekiston, 2011. – B. 27.

yoshlarga oid davlat siyosatini amalga oshirishga qaratilgan qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi Qarori qabul qilindi³.

Ma`lumki, O‘zbekiston qadimiy shaharlarga boy hisoblanadi. Yurtimizda Toshkent, Qo‘qon, Samarqand, Namangan, Andijon, Buxoro, Xiva, Urganch, Termiz, Qarshi, Jizzax kabi qadimiy shaharlar mavjud. Yurtimizning qadimiy shaharlaridan biri Namangan hisoblanadi.

Yurtimiz hududida qadimda savdo-sotiqqa jiddiy e`tibor berilgan. O‘z o‘rnida bozorlar xalqimizning ijtimoiy-iqtisodiy hayotida muhim ahamiyat kasb etgan. “Otang bozor, onang bozor” deb bekorga aytmagan dono xalqimiz. Namangan bozorlari, ularning rivojlanish bosqichlari, ularda yuz bergan o‘zgarishlar va bu bozorlarning o‘ziga xos xususiyatlarini o‘rganish mazuning dolzarbligini belgilaydi.

Mavzuning o‘rganilishi darajasi. Namangan bozorlari tarixi bugungi kunga qadar alohida tadqiqot sifatida o‘rganilmagan bo‘lsa-da bo‘lsada, ba’zi bir adabiyotlarda qimmatli ma’lumotlar uchrab turadi. Bitiruv malakaviy ishi bilan bog‘liq ilmiy adabiyotlarni shartli ravishda quyidagi guruhlarga ajratish maqsadga muvofiqdir:

1. Rossiya imperiyasi hukmronligi davriga oid asarlar.
2. Sovet davri adabiyotlari.
3. Mustaqillik davrida nashr etilgan asarlar.

Birinchi guruhga mansub adabiyotlarning mualliflari asosan rossiyalik olimlar, harbiylar, sayyoh va elchilar hisoblanib, ular XIX asr o‘rtalaridan boshlab O‘rta Osiyo xonliklarini, xususan, Qo‘qon xonligini atroflicha o‘rganishga harakat qilganlar. Ularning asarlarida asosiy e`tibor O‘rta Osiyo xonliklarini umumiy tavsifiga qaratilgan bo‘lsada, O‘rta Osiyo xonliklaridagi ijtimoiy-iqtisodiy hayot, savdo munosabatlari va bozorlar faoliyati haqida ham qimmatli ma’lumotlar qayd qilingan.

³ Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2014 йил 6 февралдаги ПҚ-2124-сонли “Ўзбекистон Республикасида ёшларга оид давлат сиёсатини амалга оширишга қаратилган қўшимча чора-тадбирлар тўғрисида”ги Қарори // Туркистон. 2014 йил 8 февраль.

Ikkinchi guruhga mansub adabiyotlarning mualliflari jumlasiga A. P. Xanikov, P. I. Nebol'sin, V. V. Grigor'yev, Ch. Ch. Valixanov, A. Kun, A. P. Xoroshxin, L. Kostenko, M. A. Terent'yev, A. N. Teterevnikov, A. K. Geysn, V. P. Nalivkin va boshqalarni kiritishimiz mumkin.

Mavzuga doir ikkinchi guruh adabiyotlarini sovet davrida yaratilgan asar va tadqiqotlar tashkil qiladi.

Bitiruv malakaviy ishi mavzusi sho`rolar tuzumi davrida alohida tadqiqot sifatida o`rganilmagan bo`lsada, ayrim olimlarning tadqiqotlarida qimmatli ma'lumotlar mavjud. Xususan, V. V. Bartol'd, A. G. Adinarov, A. L. Troitskaya, R. N. Nabiyev, H. Z. Ziyoyev, H. N. Bobobekov, F. G'afforov, V. A. Akramov, S. X. Ishanxanov, V. M. Plos'kix, T. K. Beysembiyev, E. Xurshut, A. Mahkamovlarning asar va maqolalarini kiritish mumkin⁴. Bu davr mualliflari asarlari va tadqiqotlarida O'zbekiston shaharlarining ijtimoiy-iqtisodiy ahvoli, savdo-sotiq munosabatlari, bozorlar faoliyati haqida ham qimmatli ma'lumotlar berilgan.

Bitiruv malakaviy ishi mavzusiga doir adabiyotlarning uchinchi guruhini iqtisodiy davrida nashr etilgan asarlar tashkil etadi. Mustaqillik yillarida O'zbekiston tarixining turli davrlari tarixi ham yangicha qarash va yondashuvlar asosida o`rganila boshlandi.

⁴Бартольд В. В. История культурной жизни Туркестана / Соч. Т. II. Ч. 2. – Москва, 1963. – С. 286 – 292; Адинаров А. Г. Торговые взаимоотношения между Туркестанским генерал-губернаторством и Кокандским ханством: Дисс... канд. ист. наук. – Т., 1946. – 199 л.; Троицкая А. Л. Каталог архива Кокандских ханов XIX века. – Москва: Наука, 1968. – 582 с.; O'sha muallif: Материалы по истории Кокандского ханства XIX в. – Москва: Наука, 1969. – 154 с.; Набиев Р. Н. Из истории Кокандского ханства (Феодальное хозяйство Худояр-хана). – Тошкент: Фан, 1973. – 476 с.; Зиёев Х. З. Ўрта Осиё ва Сибирь (XVI – XIX асрлар). – Тошкент, 1962. – 88 б.; O'sha muallif. Ўрта Осиё ва Волга бўйлари (XVI – XIX асрлар). – Тошкент, 1965. – 237 б.; Бабабеков Х. Н. Историческая литература о Кокандском ханстве (Русская литература 60–70 годах XIX в): Автореф... дис. канд. ист. наук. – Т.: ИВ АН РУз, 1970. – 20 л.; O'sha muallif. Народные движения в Кокандском ханстве и их социально-экономические и политические предпосылки (XVIII – XIX вв.). – Т.: Фан, 1990. – 118 с.; Гаффаров Ф. Россия билан Қўқон хонлиги ўртасидаги иқтисодий ва сиёсий алоқалар (XIX асрнинг биринчи ярми ва 60–70 йиллар): Тарих фан. номз.. дисс. – Т.: Ўз ССР ФА Тарих ва арх. институти, 1970. – 266 в.; Акромов В. А. Қўқон шаҳрининг ижтимоий-иқтисодий ва маданий ҳаёти: Тарих фан. номз.. дисс. – Т.: Ўз ССР ФА Тарих ва арх. Институти, 1973. – 220 в.; Ишанханов С. Х. Каталог монет Коканда XVIII – XIX в.в. – Т., 1976. – 40 с.; Плоских В. М. Киргизы и Кокандское ханство. – Фрунзе, 1977. – 465 с.; Бейсембиев Т. К. “Тарихи Шахрухи” – как исторический источник. – Алма-Ата.: Наука, 1987. – 198 с.; Хуршут Э. “Мунтахаб ат-таворих” и его списки // Ўзбекистонда ижтимоий фанлар. – Т., 1986. – №5. – С. 41–45; O'sha muallif: Ҳақимхоннинг ҳаёти ва саёҳатлари. – Т.: Фан, 1987. – 47 б.; Махкамов А. Роль города Коканда в развитии в экономических связи Средней Азии с Россией и сопредельными странами в XIX – начале XX веков: Дис... канд. ист. наук. – Т.: Инс. Истории АН Уз ССР, 1988. – 170 л.

Mustaqillik yillarida Bitiruv malakaviy ishi mavzusi yuzasidan alohida tadqiqot olib borilmagan bo'lsa-da, ko'plab tadqiqotlarda mavzuga doir qimmatli ma'lumotlar berildi va berilmoqda. Bunday tadqiqotlar jumlasiga H. N. Bobobekov, H. Z. Ziyoyev, G. A. Agzamova, Z. Haydarov, O'. A. Sultonov, Sh. Yu. Mahmudov, Sh. T. Qo'ldoshev, Z. Sh. Madrahimov kabilarning asar, dissertatsiya va maqolalarini kiritish mumkin⁵.

Mustaqillik davri mualliflari asarlarida yurtimiz shaharlari, xususan, Namangan shahri bozorlari faoliyati xususida ham qimmatli ma'lumotlar berilgan.

Tadqiqotning maqsad va vazifalari. Namangan bozorlari tarixi mavzusi oldiga qo'yilgan maqsad va vazifalari quyidagilardan iborat:

– O'zbekistonning mustaqillikka erishishi va uning tarixiy ahamiyatini ko'rsatib berish;

– Namangan shahri tarixini o'rganish va ilmiy xulosa qilish;

– xonliklar davrida Namangan bozorlari faoliyati, ularning mamlakat iqtisodiyotida tutgan o'rni va o'ziga xos tomonlarini ko'rsatib berish;

– Rossiya imperiyasi davrida savdo-sotiq munosabatlari va bozorlar faoliyati yuzasidan yuz bergan o'zgarishlarni Namangan bozorlari misolida o'rganish va qiyosiy tahlil qilish;

– sobiq ittifoq davrida Namangan bozorlari faoliyati, yutuq va muammolarini ko'rsatib berish;

⁵ Бобобеков Н. Н. Кўкон тарихи. – Т.: Фан, 1996. – 238 б.; Зиёев Ҳ. З. Туркистонда Россия тажовузи ва ҳукмронлигига қарши кураш. – Т.: Шарқ, 1998. – 480 б.; О'ша муаллиф. Тарих – ўтмиш ва келажак кўзгуси. – Тошкент: Гафур Ғулом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти, 2000. – 288 б.; Агзамова Г. А. Сўнгги ўрта асрлар ўрта Осиё шаҳарлари: умумийлик ва хусусийлик (шаҳар деворлари мисолида) // Ўзбекистон тарихи. – Тошкент, 1999. – №2. – Б. 56 – 63.; О'ша муаллиф. XVIII – XIX асрнинг биринчи ярмида Фарғона водийсида кечган урбанизацион жараёнлар ва унда Марғилоннинг тутган ўрни // О'zbekiston tarixi. – Тошкент, 2007. – №2. – Б. 95 – 106.; Султонов Ў. А. Муҳаммад Солиххўжанинг “Тарихи жадидаи Тошканд” асари муҳим тарихий манба сифатида (XIX аср): Тарих фан. номз... дисс. – Т.: ЎЗР ФА Шарқшунослик институти, 2007. – 173 в.; Маҳмудов Ш. Ю. Кўкон хонлигининг маъмурий-бошқарув тизими (1709–1876 йй.): Тарих фан. номз... дисс. – Т.: ЎЗР ФА Тарих институти, 2007. – 160 в.; Қўлдошев Ш. Т. Кўкон хонлиги ва Қашқар ўрта-сидаги савдо алоқалари // “Кўкон асрлар силсиласида”. Республика илмий-назарий анжумани материаллари. – Кўкон, 2004. – Б. 301–303; О'ша муаллиф. Кўкон хонлигининг Шарқий Туркистон билан иқтисодий алоқаларида Марғилоннинг тутган ўрни // “Марғилон асрлар силсиласида”. Республика илмий-амалий семинари материаллари. – Фарғона, 2005. – Б. 77–80.; Мадраҳимов З. Ш. Кўкон хонлигида савдо муносабатлари: Тарих фан. номз... дисс. – Т.: Ўзбекистон миллий университети, 2009. – 188 в.; О'ша муаллиф. Наманганинг Кўкон хонлиги савдо алоқаларида тутган ўрни. // Мозийдан садо. – Тошкент, 2008. – №2. – Б. 28 – 30; О'ша муаллиф. Наманган–Кўкон хонлигининг иқтисодий марказларидан бири // “Тарих тилга кирганда...” Илмий тўплам. – Наманган, 2008. – №2. – Б. 19–25.

– mustaqillik yillarida Namangan bozorlari faoliyati, bu soxada yuz bergan o'zgarishlar, ularning tutgan mavqeini ko'rsatib berish;

Tadqiqotning manbalari. Nodira nomidagi Namangan Markaziy kutubxonasi va Namangan Davlat universiteti asosiy kutubxonasida saqlanayotgan nodir asarlar, gazeta va jurnallar, turli hajmdagi ilmiy to'plamlar Bitiruv Malakaviy Ishining manbaviy asosini boyitishga hizmat qildi.

Tadqiqot ob'yekti. Namangan bozorlari tarixini o'rganish tadqiqotning ob'yektini tashkil etadi.

Tadqiqotning davriy chegarasi. Tadqiqot uchun davriy chegara qilib Namangan shahri tashkil topganidan to bugungi qadar bo'lgan davr olindi.

Tadqiqotning nazariy va uslubiy asoslari. Mavzuni yoritish jarayonida O'zbekiston Respublikasi Prezidenti I. A. Karimov asarlarida ilgari surilgan Vatan tarixini manbalar asosida haqqoniy o'rganish, xolislik va tarixiylik tamoyillariga asosiy e'tibor qaratishga oid g'oyalari nazariy asos vazifasini bajardi. Tadqiqot jarayonida muammoni yangi tarixiy tafakkurning kontseptual nuqtai-nazaridan idrok etishga, tarixiy voqealar xarakterini ularning real mazmuni asosida, hozirgi zamon tarix fani talablari kontekstida ochib berishga asosiy e'tibor qaratildi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Bitiruv malakaviy ishidan kasb hunar kollejlari va akademik liseylarda "O'zbekiston tarixi" fanidan hamda oliy o'quv yurtlari Tarix fakul'tetlari bakalavrlari uchun "O'zbekiston tarixi", "O'rta Osiyoning qadimgi va o'rta asr shaharlari tarixi", "Qo'qon xonligi tarixi", 5A120301 – O'zbekiston tarixi magistratura mutaxassisligi talabalari uchun "Savdo munosabatlari tarixi" fanlaridan ma'ruza matnlari tayyorlashda, amaliy mashg'ulotlar olib borishda foydalanish mumkin.

Tadqiqotning tuzilishi va hajmi. Bitiruv malakaviy ishi kirish, ikki bob, xulosa, foydalanilgan manba va adabiyotlar ro'yxati hamda ilovalardan iborat.

I BOB. QO'QON XONLIGI, ROSSIYA IMPERIYASI VA SOVET HOKIMIYATI DAVRIDA NAMANGAN BOZORLARI

1.1. Qo'qon xonligi davrida Namangan bozorlari faoliyati

O'zbekistonning yirik shaharlaridan biri Namangan yurtimizning qadimiy va navqiron shaharlaridan hisoblanadi. Shahar ko'chmanchi chorvadorlar va dehqonchilik bilan shug'ullanuvchi o'troq aholi yashaydigan chegarada vujudga kelgan. Namangan qishlog'i haqidagi dastlabki ma'lumot XIV asr oxiriga tegishli.

Zahiriddin Muhammad Bobur o'zining “Boburnoma” asarida Namanganni qishloq sifatida eslatib o'tgan. 1620 yil Farg'ona vodiysining qadimgi poytaxti Axxi (Axxikant) zilzilardan vayron bo'lgach, uning aholisi yaqinroq joylashgan Namanganga ko'chib o'tadi va Namangan kengayib, mavqei ortib boradi. Xususan, Namangan 1643 yilgi vaqf hujjatida shahar deb ma'lumot berilgan.

Qo'qon xonligi davrida Namangan xonlikning yirik siyosiy, iqtisodiy va madaniy markaziga aylangan. XIX asr boshlariga kelib, Qo'qon xonligida iqtisodiy va madaniy markazlaridan biri sifatida Namangan shahrining mavqei ortib bordi. 1803 yilda Norin daryosidan suv oluvchi Yangiariq kanalining qazilishi va uni 1819 yili kelib Umarxon tomonidan kengaytirilishi qo'riq erlar o'zlashtirilishiga va Namangan shahrining yanada kengayishiga sabab bo'ldi⁶. Siyosiy va iqtisodiy jihatdan yuksalib borgan Namangan 1842–1845 yillarda mudofaa devori bilan o'ralgan⁷. XIX asr 20-yillarida Namanganda taxminan 5000 uy bo'lgan va ularda 25 mingdan ortiq aholi yashagan. XIX asr o'rtalarida Qo'qon xonligida bo'lgan rus sharqshunosi V. V. Vel'yaminov-Zernov, Namangan shahri xonlik hayotida Qo'qon va Toshkent kabi muhim ahamiyat kasb etishi, erlari asosan Yangiariq va Podsho Ota kanallaridan suv ichishi va shahar aholisining asosiy qismini Chig'atoy urug'iga mansub o'zbeklar tashkil etishi xususida ma'lumot keltirgan.

⁶ Иванов П. П. Очерки по истории Средней Азии. – Москва, 1958. – С. 182.

⁷ Зотов А., Якубов Б., Смирнов Н., Чабров Г. Города Ферганской долины. – Т., 1963. – С. 140.

XIX asr boshlari kelganda Farg'ona vodiysidagi eng yirik va mashhur bozorlardan biri Namanganda bo'lgan. Namangan bozori hunarmandchilik va bog'dorchilik mahsulotlari hamda tog'li qirg'izlar bilan savdoda xonlikda ajralib turgan.

Namangandagi savdo munosabatlari Qo'qon xonlarining ham doimo etiborida edi. Xususan, Qo'qon xoni Xudoyorxon Namanganning iqtisodiy salohiyatini hisobga olib, 500 do'kondan iborat yirik bozor qurdirgan. Bu bozordan kelayotgan daromadning asosiy qismi xonning xazinasiga tushgan. Har bir do'kon yiliga 5 tildan 10 tillogacha xon xazinasiga daromad keltirgan. 1875 yil A. L. Kun Qo'qon xonligiga kelgan davrda Namanganda 1000 dan ortiq savdo do'koni bo'lganligini yozib qoldirgan.

Namangan asosiy bozori shaharning markazida, shahar ko'chalari tutashgan joyda bo'lgan va xonlikning yirik shaharlarida bo'lgani kabi mahsulot turlariga qarab, rastalarga va kichik bozorlarga bo'lingan: go'sht rastasi, don bozori, un bozori, yog' bozori, chorva bozori, ipak va pilla bozori, ipak matolar rastasi, paxta bozori, meva bozori va h.k. Namangan bozori har doim mahalliy va turli hududlardan kelgan savdogarlar va xaridorlar bilan gavjum bo'lgan. Namangan bozorida mayda savdo haftaning har kuni olib borilgan bo'lsa, katta bozor Qo'qon va Toshkent bozorlaridan kam bo'lmagan va shanba, yakshanba kunlari sahardan to kechgacha, yil bo'yi davom etgan⁸.

Ma'lumotlariga qaraganda, Namanganning markazida katta bozor va Begi, Degbiz va Mavlavi nomli 3 ta karvonsaroy bo'lgan va Degbiz karvonsaroyi ikki qavatlilik bilan ajralib turgan. Namangan karvonsaroylari pishiq g'ishtdan qurilgan va to'rtburchak shaklida bo'lib, ichkariga bitta darvoza orqali kirilgan. Karvonsaroylar markazida mahsus maydon bo'lgan va savdo karvonlari yuklari shu maydonga tushirilgan. Karvonsaroy devorlari yonida ayvonli savdo do'konlari joylashgan bo'lib, ayvonlar do'konlarni yog'ingarchilikdan ximoya qilgan bo'lsa,

⁸ Мадраҳимов З. Ш. Наманганиннг Қўқон хонлиги савдо алоқаларида тутган ўрни. // Мозийдан садо. – Тошкент, 2008. – №2. – Б. 28.

ikki qavatli karvonsaroylarning ikkinchi qavati ayvon vazifasini bajargan. Mavlavi karvonsaroyi shahardagi eng yirik karvonsaroy bo'lib, unda 30-40 atrofida savdo do'koni mavjud bo'lgan. Mavlavi karvonsaroyi shu nom bilan ataluvchi madrasa va masjidga[•] vaqf puli ajratib turgan.

Namanganda xonlikning Marg'ilon va Qo'qon kabi ipakchilik markazlaridan edi. Shuningdek, bog'dorchilik va dehqonchilik mahalliy aholining asosiy mashg'ulotlari hisoblangan. Ma'lumotlariga ko'ra, shaharda atlas, beqasam, chit, shoyi, surp va boshqa ipak, yarim ipak va ip-gazlamalar tayyorlangan. Sifatli ipak va ipak matolar Qo'qon va Toshkentga olib ketilgan. Namanganda tayyorlangan matolar O'rta Osiyodan tashqarida ham mashhur edi. XIX asr 60 – yillarida O'rta Osiyoda bo'lgan A. Vamberi ma'lumotiga ko'ra, Hirotga u bilan – “50–60 atrofidagi qo'qonlik xojilar qarayib 40 dyujin[•] ipak ro'mol, 2 mingga yaqin pichoq, 30 bo'lak Namangan shoisi, ko'p sonli Qo'qon do'ppilari va boshqa mollarni sotish uchun Arabistonga olib ketgan”. Ushbu ma'lumotlarni o'ziyoq Namangan shoisining xaridorgir bo'lganligidan dalolat beradi⁹.

Qo'qon xonligida oddiy xalq ichida xaridorgir bo'lgan ipakdan to'qilgan yo'l-yo'l matolar ishlab chiqarish bilan Qo'qon yaqinidagi Beshariq qishlog'i va Namangan mashhur hisoblangan¹⁰. Bunday matolar tog'li qirg'izlar orasida ham mashhur edi. Xususan, V. Nalivkinning yozishicha, Namangan bozorida bir rubl[•] turadigan yo'l-yo'l gazlamaning bir yaktak va ishton chiqadigan bo'lagi uchun qirg'izlar bir yarim yasharlik echki bergan bo'lsa, shunday matoning ikki bo'lagiga esa etilgan qo'yni almashtirgan.

Qo'qon xonligining qo'shni mamlakatlarda ip-kalavasi ham mashhur bo'lib, xonlikdagi eng yuqori sifatli kalava Namanganniki hisoblangan. XIX asr 70 –

[•] Izoh. Har uchala inshoot ham XIX asr 60 – yillrida qurilgan.

[•] Izoh. 1 dyujina 12 dona molni anglatagan.

⁹ Мадрахимов З. Ш. Наманган – Қўқон хонлигининг иқтисодий марказларидан бири // “Тарих тилга кирганда...” Илмий тўплам. – Наманган. 2008. – №2. – Б.19-25.

¹⁰ Кустарные промысли в быту народов Узбекистана. – Т., 1986. – С. 64.

yillarida Qo'qon bozorida Namanganning 1 – navli kalavasining pudi* 32 tillo (132 Rossiya rubliga teng), 2 – navlisi 28 tillo (106 rub. 40 kopeekga teng) dan sotilgan bo'lsa, Buxoroda 1 – navli Namangan kalavasi 30 Buxoro tillosi (138 rub.), 2 – navlisi 27 Buxoro tillosi (122 rub. 20 kop.) dan sotilgan va afg'on savdogarlari tomonidan sotib olinib Qobulga olib ketilgan¹¹.

Namangan turli xildagi o'simliklardan turli rangdagi sifatli bo'yoq tayyorlash va ip-gazlama, ipak hamda ipak matolarni bo'yash kasbi bilan ham taniqli edi. Namanganda ipakni bo'yashda asosan norpus (qora anor) bo'yog'idan foydalanilgan bo'lib, xonlikning turli hududlaridan katta miqdorda ipakni bo'yatish uchun olib kelganlar. Qo'qon xonligida ro'yan (morena) deb nomlangan butasimon o'simlik ildizidan tabiiy qizil rangdagi bo'yoq tayyorlangan va qo'shni mamlakatlarga, xususan, Rossiyaga ko'plab olib ketilgan. Bu bo'yoq qo'shni hududlarda juda mashhur bo'lib, u ham asosan Namanganda tayyorlangan. Ro'yan bo'yog'idan Qo'qon xonligi hunarmandlari turli xildagi matolarni bo'yashda keng foydalanganlar¹². XIX asrning o'rtalarida ro'yanning tuyasi Toshkent va Qo'qonda 8 – 10 tilloga, 1856 yilda chorak ro'yan yarim tangaga sotilgan. XIX asr 70 – yillariga kelib, ro'yanning narxi ko'tarilgan va Qo'qon bozorida ruyanning pudi 1 rub. 80 kop.dan 2 rub. 75 kop.gacha sotilgan.

Namangan Qo'qon kabi xonlikning muqovalash hunari rivojlangan shaharlaridan bo'lib, bu yerda charm va qog'ozdan yaratilgan muqovalar O'rta Osiyoning yirik markazlari – Samarqand va Xivada tayyorlangan muqovalardan qolishmas edi¹³.

Namanganda metallurgiya sanoati ham rivojlangan bo'lib, metalga ishlov berish va undan turli buyumlar yasash markazi sifatida xonlikdagina emas, balki

* Izoh: Pud – 16,3 kg. ga teng og'irlik o'lchov birligi. Qarang: Ўзбекистон миллий энциклопедияси. – Т., 2004. – Т. 7. – Б. 196.)

¹¹ Мадраҳимов З. Ш. Наманган – Қўқон хонлигининг иқтисодий марказларидан бири // “Тарих тилга кирганда...” Илмий тўплам. – Наманган. 2008. – №2. – Б.19-25.

¹²Адинаров А. Г. Торговые взаимоотношения между Туркестанским генерал-губернаторством и Кокандским ханством. Диссертация на соискание ученой степени кандидата исторических наук. – Т., 1946. – С. 54.

¹³Қосимов Й. Наманган тарихидан лавҳалар. – Т., 1990. – Б. 20.

O'rta Osiyoda ham o'z o'rniga ega hisoblangan¹⁴. P. I. Pashino ma'lumotlariga ko'ra, Namanganda qurolsozlik rivojlangan hamda bu erda miltiq va qilichlar tayyorlangan. O'rta Osiyo xonliklariga temir va metal buyumlarni keltirish asosan namanganlik savdogarlarning qo'lida bo'lgan.

Namangan tamakisi xonlikdan tashqarida ham mashhur bo'lib, XIX asr 30-yillarida Qo'qon xonligida bo'lgan kazak Maksimov ma'lumotlariga ko'ra, xonlikning eng boy va yirik shaharlari Qo'qon va Toshkent bo'lsa-da, aholi hayotining farovonligi bo'yicha Namangan xonlikda ajralib turgan. Bu erdagi bog'larning o'xshashi yo'q. Namangan tamakisining sifati yuqori bo'lib, u sariq rangda edi va huddi Amerika tamakisiga o'xshar edi. XIX asr 30 – yillarida Qo'qon xonligida bo'lgan V. V. Vel'yaminov-Zernov ma'lumotlariga ko'ra, xonlik davrida O'rta Osiyoda Namangan tamakasi bilan raqobatlasha oladigan tamaki bo'lmagan.

Farg'ona vodiysida iyun` boshlaridan kuz oxiriga qadar yog'och savdosi qizg'in tus olgan. Yog'och savdosida xonlikda Namangan yetakchilik mavqeini egallagan. Namangan bekligiga kiruvchi Zarkent, Mamay, Nanay, Navkent qishloqlari aholisi atrofdagi tog'lardan archa va el daraxtlaridan yog'och tayyorlab Namangan bozorlariga keltirgan. Yog'och savdosi bilan ayniqsa, Nanay yaqinidagi Jaik qishlog'i mashhur bo'lgan. XIX asr 70 – yillarida Qo'qon xoni Xudoyorxon Turkiston general-gubernatori fon Kaufman iltimosiga ko'ra, Xo'jand yaqinida Sirdaryo ustiga ko'prik qurilishi ishlarini amalga oshirgan. Xudoyorxon ko'prik qurish uchun yog'ochni asosan Namangan viloyati hududidan keltirgan. Namangandan yog'och Xo'jandga Sirdaryo orqali olib kelingan va bu davrda Namangandan Xo'jandga yiliga 2000 dan orqali yog'och daryo orqali keltirilgan¹⁵.

Namanganda xunarmandchilikning ko'plab turlari mavjud bo'lgan. Xususan, Rossiya istilosiga qadar shahardagi YAngiariq kanalining chap qirg'og'ida g'isht

¹⁴История народов Узбекистана. Том II. – Т., 1947. – С. 139 – 140.

¹⁵Набиев Р. Н. Из истории Кокандского ханства. – Т., 1973. – С. 173 – 174.

quyuvchi xumdonlar bo'lgan va ularda tayyorlangan g'ishtlar shahardagi madrasa, masjid, karvonsaroy va boshqa inshootlar qurishda keng foydalanilgan.

Namangan atroflarida aholi dehqonchilik bilan mashg'ul bo'lgan va paxta, bug'doy, sholi, arpa, poliz ekinlari va boshqalar etishtirgan. Dehqonchilik mahsulotlari qo'shni viloyat bozorlariga ham olib chiqilgan. Xususan, ma'lumotlarga ko'ra, Qo'qon va uning atrofi bug'doy bilan o'zini ta'minlay olmagan va Namangan dehqonlari etishtirgan bug'doy Qo'qon bozorlariga yil davomida etkazib turilgan. XIX asr o'rtalarida Namanganda 1 botmon[•] bug'doy 1 tillo, 4 botmon jo'xori 1 tillo, 3 botmon arpa 1 tillodan sotilgan¹⁶.

Namangan bog'larida etishtiriladigan ho'l va quruq mevalari xonlik va O'rta Osiyo bozorlarida ham mashhur edi. 1813 – 1814 yillarda Qo'qon xonligida bo'lgan tarjimon F. Nazarov o'z esdaliklarida, “Namanganda aholi ko'p, qog'oz ishlab chiqaradigan fabrika bor va bu erdagi mevalar boshqa yerlarda uchramaydi. Shahar aholisi tog'li qirg'izlar bilan savdo qiladi”, deb yozgan edi. P. I. Nebol'sin-ning yozishicha, Namanganda ko'plab bog'lar bor, mevalarning turlari ko'p, xususan, o'rik juda lazzeatli bo'lgan va Toshkentga sotish uchun ko'plab olib borilgan. Yana bir rus olimi N. Aristov uzum sifati bo'yicha eng yaxshisi Namanganniki, deb ta'riflagan. Sayyoh va shifokor I. Krauze ma'lumotlariga ko'ra, xonlikda anjir va anor etishtirishda Namangan mashhur bo'lib, anjir mevasi, anor guli, ildizi, po'stlog'i va yaprog'idan mahalliy tabiblar turli kasalliklarni davolashda foydalanganlar. Qo'qon xonligi davrida Namangan hamda Toshkentda anordan uksus tayyorlangan va unga rus savdogarlari orasida talab katta bo'lgan. Xonlik bozorlarida uksusning shishasi bir tangadan sotilgan. Shuningdek, Namangan olmalari xonlikdan tashqarida ham taniqli va xaridorgir hisoblangan. Namangan mevalari xonlik bozorlarida, xususan, Toshkentda “namanganniki” nomi bilan

[•] Izoh: botmon – og'irlik o'lchov birligi. XIX asrda Farg'ona vodiysida 1 botmon 8 – 10 pudga yoki 131,044 – 163,805 kg. ga teng bo'lgan (Ўзбекистон миллий энциклопедияси. – Т., 2 – том. 2001.– Б. 171.).

¹⁶ Мадраҳимов З. Ш. Наманган – Қўқон хонлигининг иқтисодий марказларидан бири..... – Б. 21-25.

tanilgan¹⁷. XIX asr o'rtalarida Namanganda 1 botmon uzum 1 tillo, 1 botmon olcha 1,5 tanga, 1 chaqsa nok 1 tanga, 2 yoki 3 botmon o'rik 1 tillodan sotilgan.

Namangan bekligi foydali qazilmalarga boyligi bilan mashhur bo'lgan. Qo'qon xonligida oltin va kumush juda kam bo'lib, oltin, asosan, Namangan bozorlariga Kosonsoydan keltirilgan bo'lsa, neft Namangan yaqinidagi (40 km.) Mingbuloq konidan qazib olingan va mahalliy bozorlarga olib chiqilgan. Tub joy aholi neftdan turli teri kasalliklarini (qo'tir, yara-chaqa va h.k.) davolashda ham foydalangan¹⁸.

Qo'qon xonligi shahar va qishloqlarini Namangan va O'sh yaqinidan qazib olingan osh tuzidan o'z ehtiyojini qondirgan. XIX asr 60 – yillarida xonlik bozorlarida tuzning pudi 12 – 14 kop.dan sotilgan.

Namangan chorva bozori ham xonlikda yetakchi mavqeilardan birini egallagan. Chunki, Namangan viloyatida ko'plab qirg'izlar yashagan bo'lib, Namangan bozori qirg'izlar hayotida muhim o'rin tutgan. Qirg'izlar Namangan bozorlariga asosan chorva va chorva mahsulotlarini keltirgan. Shuningdek, namanganlik savdogarlar qirg'iz ovullariga borib mahalliy hunarmandchilik mahsulotlarini sotgan va chorva hamda chorvachilik mahsulotlarini olib qaytganlar. Qirg'iz ovullariga savdogarlar tomonidan olib kelingan mollar mol ayriboshlash yo'li bilan qirg'iz chorvasiga va chorva mahsulotlariga almashtirilgan. Qirg'izlar bilan savdo-da qo'y asosiy mol ayriboshlash vositasi vazifasini bajargan. SHuningdek, qo'yning go'shti, juni ham shu vazifani bajarishi mumkin bo'lgan. Qo'qon xonligi hunarmandlari matolari qirg'iz ovullarida yuqori baxolangan. Xususan, Namanganda tayyorlanadigan “timpai” – “qora kaska” nomi bilan ataluvchi yo'l-yo'l gazlama qirg'izlar orasida mashhur bo'lgan va uning ikki bo'lagi Namanganda 16 tangaga baholangan bo'lsa, qirg'izlar unga 5 ta qo'y bergan.

¹⁷ Губаева С. С. Население Ферганской долины (в конце XIX – начале XX в.). – Т., 1991. – С. 13.

¹⁸ Мадрахимов З. III. Наманганинг Қўқон хонлиги савдо алоқаларида тутган ўрни. // Мозийдан садо. – Тошкент, 2008. – №2. – Б. 28 – 30.

XIX asr o'rtalarida xonlik orqali Qashqarga borgan CH. CH. Valixonov ma'lumotlariga ko'ra, Tyanshan', CHu va Issiqko'l qirg'izlari bilan savdo qashqarlik va namanganlik savdogarlar qo'lida bo'lgan. Bu hududlarda namanganlik savdogarlar ip-gazlama, xunarmandchilik mahsulotlarini chorva mollariga ayriboshlagan.

Shuningdek, qirg'izlar xonlik bozorlaridan oziq-ovqat sifatida ko'plab jo'xori sotib olgan. Xususan, Namangan bozoridan kuz va qish oylarida ulovlariga jo'xori yuklab olib ketayotgan qirg'izlarni ko'plab uchratish mumkin bo'lgan. Namangan bozorida bir chorak jo'xori 5 rubldan sotilgan bo'lsa, uning narhi qirg'iz ovullarida ancha qimmat baxolangan¹⁹.

Aliyoota – Qorabura darasi – Farg'ona vodiysi karvon yo'lida joylashgan Namangan orqali ko'plab chorva mollari vodiyni boshqa shaharlariga tarqagan. Ma'lumotlarga qaraganda, Qo'qon xoni Muhammad Alixon 1826 – 1827 yillarda Avliyoota qal'asiga asos solgan. Bu erda dastlab faqatgina harbiylar turgan bo'lsa, asta-sekin qo'y savdosi bilan shug'ullanuvchi namanganlik savdogarlar joylasha boshlaganlar. 1837 yilda qal'da “Namangan ko'cha” mavjud bo'lgan. Bu esa, Namangan va namanganliklar hayotida savdo nihoyatda katta o'rin tutganidan dalolat beradi. Ma'lumotlarga qaraganda, avgust oxiri va sentyabrda Namangan bozorlariga Qorabura darasi orqali Avliyootadan qo'ylar xaydab kelina boshlangan. Bu yo'l orqali yiliga 50-70 ming qo'y Namanganga va u orqali Qo'qon xonligi bozorlariga olib borilgan. Qo'qon xonligi davrida Avliyootadan Farg'ona vodiysiga ikki karvon yo'li bo'lib, bular, Qorabura darasi orqali Namanganga va Toshkent orqali Qo'qonga olib boruvchi karvon yo'llari edi. Avliyootadan vodiya qozoq qo'ylarini xaydab boruvchi savdogarlar yilning issiq kunlarida Qorabura darasi orqali Namanganga boruvchi yo'ldan foydalangan. Bu yo'lni bosib o'tish uchun - Namangandan chiqqan karvon Tirs tog'lari, CHotqol vodiysi, Qorabura darasi orqali Avliyootagacha borgan. Namangan – Avliyoota

¹⁹ Мадраҳимов З. Ш. Қўқон хонлигида савдо муносабатлари: Тарих фан. номз... дисс. – Т.: Ўзбекистон миллий университети, 2009. – Б. 96–98.

yo'li 150 verst masofadan iborat bo'lgan va savdo karvoni tomonidan 9 kunda bosib o'tilgan. Bu karvon yo'lida bir nechta tog' dovonlari mavjud bo'lganligi sababli, yilning issiq oylarida, asosan otlar yordamida bosib o'tilgan. Savdogarlar bu karvon yo'li orqali Namangandan Avliyootaga asosan hunarmandchilik mahsulotlari olib borgan va qaytishda katta miqdorda chorva xaydab ketgan²⁰.

Namangan O'rta Osiyoning yirik iqtisodiy markazi bo'lgan Toshkent bilan to'g'ridan-to'g'ri savdo qilish imkoniyatiga ega bo'lgan. Namangan mevalari va bo'z, shoi va boshqa ipak va yarim ipak matolari Toshkent bozorlariga ko'plab olib borilgan. Namangandan Toshkentga har yili 500 tuyada quritilgan meva, 1000 tuyada ipak va ipak matolar, ro'yan bo'yog'i va boshqalar olib borilgan.

Namangandan Toshkentga ham alohida yo'nalishda ikki karvon yo'li mavjud edi. Ulardan biri Namangandan To'raqo'rg'on, Chust, Pop, G'urumsaroy, Pungon, Qamishqo'rg'on, Mullashir, To'ytepa orqali Toshkentga olib kelgan bo'lib, bu karvon yo'li 294 verst masofadan iborat bo'lgan va karvon uni 10 – 12 kunda bosib o'tgan. XIX asr 60 – yillarida Namangan – Toshkent karvon yo'lidagi tuyalar uchun 6 rub. 20 kopeekgacha, aravalar uchun 15 rublgacha xizmat xaqi berilgan. Shuningdek, Namangandan Tirs tog'lari, Chotqol vodiysi, Qorabura darasi, Avliyoota, Chimkent, Qoplonbek orqali Toshkentga keluvchi yana bir karvon yo'li ham mavjud bo'lgan. Namangandan Toshkentgacha bu karvon yo'li 572 verst bo'lgan va bu masofani karvon 16–20 kunda bosib o'tgan. Bu yo'l og'irligi tufayli savdogarlar yoz va kuzning dastlabki oylaridagina undan foydalangan va yuklarini otlar yordamida manzillariga etkazgan. Namangan – Avliyoota – Toshkent karvon yo'li Farg'ona vodiysining Toshkent bilan birga qozoq va qirg'izlar bilan savdo aloqalarida ham muhim ahamiyat kasb etgan.

Namangan va vodiyniing turli shahar va qishloqlari orasida yil bo'yi tinimsiz karvonlar qatnagan. 81 verstlik Namangan, Shahand, Buvayda, Qo'qon, 67 verstlik Namangan, Baliqchi, Haqqulobod, Andijon, 40 verstlik Namangan, To'raqo'rg'on,

²⁰ Мадраҳимов З. Ш. Наманган – Қўқон хонлигининг иқтисодий марказларидан бири.... – Б. 21–25.

* Izoh: verst – uzunlik o'lchov birligi bo'lib, 1,0668 km. ga teng (Ўзбекистон Миллий Энциклопедияси. – Т., 2001. Том 2. – Б. 435.).

Chust, 35 verstlik Namangan, CHortoq, Uchqo'rg'on va 190 verstlik Namangan, Chust, Pop, Pungon, Qamishqo'rg'on, Samgar, Xo'jand yo'llari muhim ahamiyatli hisoblangan va serqatnovligi bilan ajralib turgan²¹.

Xonlik karvon yo'llari masofalarini yaqinlashtirish va aholi hamda savdogarlarga qulayliklar yaratish maqsadida ko'plab namanganlik savdogarlar ko'priklar qurdirgan, eskilarini ta'mirlagan. Xususan, SHERALIXON hukmronlik davrida (1842–1845) diniy ulamo Azizxo'ja eshon Namongoniy tomonidan Qo'qon – Namangan yo'lidagi Sirdaryo ustiga ko'prik qurdirilgan. SHuningdek, Uchqo'rg'on – Namangan yo'lidagi, Norin daryosi ustiga mahalliy mulkdorlardan biri tomonidan qurdirilgan ko'prik ham alohida e'tiborga molik edi²².

Qo'qon xonligi iqtisodiyotida savdo bojlari muhim ahamiyat kasb etgan. Bu borada Namanganning ulushi ham salmoqli bo'lgan. Namangan shahri bojxonasida bitta zakotchi va bitta mirza faoliyat ko'rsatgan. Namangan viloyatiga tegishli To'qmoq – Ketmontepa, Namangan – Avliyoota karvon yo'llarida bojxona postlari bo'lib, ularning har birida ikkitadan soqchi bo'lgan. Shuningdek, Chust bojxonasida bitta zakotchi, bitta mirza va ikkita soqchi bo'lib, Qamishqo'rg'on ham ikkita soqchidan iborat bojxona posti mavjud edi. SHuningdek, Avliyootadan qo'ylarni yashirincha yo'llar bilan haydab kelinishining oldini olish maqsadida Imomota, Sumsar, Oqtoshda ikkita soqchidan iborat bojxona postlari turgan.

XIX asr 40-yillarida xonlik xazinasiga yiliga savdo bojlaridan Namangan 50.000 tillo daromad keltirgan bo'lib, bu davrda xonlik xazinasiga bir yilda savdo bojlaridan jami tushgan daromad 282.000 tillo edi. Qo'qon xonligining katta qismi Rossiya tomonidan bosib olinganidan so'ng savdo bojlaridan tushadigan daromad ham kamaygan. A. Kun ma'lumotlarga ko'ra, XIX asrning 70-yillarida xonlik xazinasiga bozor bojlari va torozi pulidan Namangan 4.860 tillo, savdo karvonlaridan olinadigan zakot solig'idan Namangan 1000 tillo daromad tushirgan. Bu

²¹ Мадраҳимов З. Ш. Қўқон хонлигида карвон йўллари. // Таълим ва Тафаккур.– Наманган, 2008. –№5. – Б. 24-25.

²²Набиев Р. Н. Из истории Кокандского ханства. – Т., 1973. – С. 126.

davrda xonlik xazinasiga jami 31.100 tillo bozor bojlari va torozi pulidan, 33.100 tillo mablag' esa savdo karvonlaridan kelar edi²³.

Xulosa sifatida shuni qayd etish mumkinki, Namangan shahri Qo'qon xonligi davrida siyosiy, madaniy va iqtisodiy jihatdan etakchi o'rinlardan birini egallagan va yirik iqtisodiy markazlaridan biriga aylangan. Namangan bozorlari hunarmandchilik, bog'dorchilik va dehqonchilik mahsulotlari bilan O'rta Osiyoda o'z mavqeiga ega bo'lgan bo'lsa, Namangan savdogarlari xonlik iqtisodiyotini yuksaltirishda muhim ahamiyat kasb etgan.

1.2. Rossiya imperiyasi va sovet hokimiyati davrida Namangan bozorlari

Namangan viloyati Farg'ona vodiysining shimoli-g'arbiy qismida joylashgan. Qo'qon xonligi tugatilib, uning o'rnida Farg'ona oblasti tashkil etilgach, Namanganning hozirgi hududida Namangan va Chust uyezdlari tashkil etildi va 1897 yili ikkala uezd yagona Namangan uezdi qilib birlashtirildi. O'zbekiston SSR tashkil etilgach, Namangan uezdi ma'muriy tuzilishi quyidagicha etib belgilandi: 1925 yil Namangan uezdida volost va tumanlar 19 ta, shaharlar 2 ta, mahalliy qishloqlar soni esa 254 tani tashkil etdi.

1918 yil mart oyida Namangan uyezdida paxta tozalash, yog'-moy zavodlari va banklar natsionalizatsiya qilindi. 1918 yil iyun oyida shaharda Turkiston Xalq banking Namangan bo'limi tashkil etildi²⁴.

1917-1920 yillarda sovet hokimiyati olib borgan xususiy mulkchilikni tugatish va davlat monopoliyasining o'rnatish, iqtisodni markazlashtirib, barcha resurslarni davlat qo'lida to'plash, partiya diktaturasini o'rnatish, xususiy savdoni taqiqlash, sanoatda xususiy mulkni tugatish siyosati og'ir oqibatlarga olib keldi. Bunday siyosat jarayonida tovar-pul munosabatlari qat'iy cheklanib, davlat bosh ta'minotchi va taqsimotchiga aylanishi o'lkada xalqni davlatga qaram bo'lib qolishiga, uning turmush darajasi keskin pasayishiga olib keldi. Oziq-ovqat solig'i,

²³ Мадраҳимов З. Ш. Қўқон хонлиги божхоналари ва уларнинг фаолияти. // “Мустақиллик даврида тарих фани ва маънавият”. Илмий тўплам. – Наманган, 2009. –Б. 37 – 43.

²⁴ НВДА, Р.796-фонд, 1-рўйхат, 63-иш, 13-варак.

nonga davlat monopoliyasi, er-suvning davlat tomonidan tortib olinishi, tadbirkorlar faoliyatining ta`qiqlanishi, xususiy savdoning cheklanishi inqirozli oqibatlarni keltirib chiqardi. Qisqa fursatda sanoat inqirozga uchradi. Zarur tovarlar taqchilligi boshlandi. Sovet hokimiyati tovar almashlash, qishloq va shahar ishlab chiqaruvchilari bilan iste`molchilarini o`zaro bog`lash, bozorlarni, sanoat korxonalarini yuritish imkoniga ega emas edi. Bunday sharoitda mamlakatda iqtisodiy inqiroz boshlandi. Bunday sharoitda sovet hokimiyati zudlik bilan iqtisodiy inqirozdan chiqish uchun o`z iqtisodiy siyosatidan voz kechishga, iqtisodni bir oz bo`lsada, erkinlashtirishga qaratilgan chora-tadbirlar qo`llashga majbur bo`lgan.

1923 yilda Namangan uezdida shahar aholisi hamda mavjud sanoat ishlab chiqarish korxonalarining ro`yhatga olinadi. Unga ko`ra, shaharda 40.257 aholi, 1844 ishlab chiqarish korxonalari, 624 ta savdo markazlari, 3843 chorva hayvonlari mavjudligi aniqlandi. Chustda esa 8758 ta aholi, 549 ta ishlab chiqarish korxonalari, 120 ta savdo markazlari va 1073 ta chorva hayvonlari borligi ro`yxatga olingan²⁵.

Farg`ona vodiysi shaharlarida savdo-sotiq ishlari asosan bozorlarda olib borilgan. Bozorlarda asosiy savdo mollari: qishloq xo`jalik mahsulotlari, mahalliy xunarmandlar tomonidan tayyorlangan turli xil mexnat qurollari, maxalliy shoyi-ipak mahsulotlari, oyoq kiyimlar, kiyim-kechak, gilamlar, poliz va qishloq xo`jalik mahsulotlarini tashkil qilgan. 1914 yilda viloyatda bozorlarni soni 90 tani, 1917 yilga kelib esa 30 tani tashkil etgan. Farg`ona viloyatining iqtisodiy rivojlanishida Qoshg`ar bilan olib borilgan savdo-sotiq aloqalari muhim rol o`ynagan. Qoshqar viloyatidagi Fayzobod, Maralboshi, Yangishsar, Yorkent, Xo`tan kabi shaharlari muhim savdo-sotiq markazlari xissoblangan. Qoshg`ar bilan Farg`ona o`rtasidagi savdo aloqalarida ipak-gazlamalar savdosi etakchi o`rinni egallagan. Qoshg`ardan Farg`onaga 1914 yilda jami 3.410.000 so`mlik mahsulotlar jumladan: ipak va gazlamalar, kigiz, teri mahsulotlari, gilamlar, qora choy va boshqa mahsulotlar olib

²⁵ ФВДА, Р. 435-фонд, 1-рўйхат, 207-иш, 14-варак

kelingan. Farg'onadan Qoshg'arga 1914 yilda jami 3.624.000 so'mlik mahsulotlar jumladan: paxta ipak gazlamalari, temir va po'latdan tayyorlangan buyumlar, turli xil shisha idishlar, gugurt, tamaki mahsulotlari, tikuv mashinalari, baxmal ipak matolar jo'natilgan.

Shaharlardagi bozorlarda mol ayriboshlash faqat pullik tartibda bo'lsa, qishloqlarda esa mol ayriboshlash aralash tarzda pul yoki mahsulot orqali amalga oshirilgan. Masalan, tuz, oyoq kiyimi, attorlik mollarini bug'doy uniga, yog', asal va boshqa mahsulotlarga ayirboshlangan.

1917 yilda Namangan shahrida savdo-sotiqning turli xil shakllari mavjud bo'lgan. Shahardagi savdo korxonalari va choyxonalar atrofida oziq-ovqat, mevasabzavot, go'sht va boshqa xo'jalik mollari savdosi bilan shug'ullanuvchi alohida do'konlar joylashgan edi. Shaharda ayniqsa dong taratgan bozorlardan biri "Rasta"²⁶ deb nomlagan bo'lib, u erda savdogarlar ishlab chiqarish sanoat mollari bilan savdo-sotiq qilgan. Shuningdek, Namangan shahri hunarmandchilik markazi sifatida ham katta ahamiyat kasb etgan. Shaharda hunarmandchilikning turli xil shakllari: temirchilik, zargarlik, kulolchilik kabilar rivojlangan edi. Shuningdek, bozorlarda choyxonalar va ovqatlanish maskanlari ham bo'lib, u yerlarda turli xil milliy taomlar tayyorlangan. Namangan uezdida ham savdo-sotiq asosan bozorlarda bo'lib, 1923 yilda ularning soni 19 ta bo'lgan²⁷. 1924 yil avgustda yirik savdo birlashmalari (sindikat) tuzilib, ularning ulgurji bazalari va qisman chakana savdo bilan shug'ullanuvchi tarmog'lari bo'lgan. Namangan shahrida 1923 yil 1 dekabr-dan o'z faoliyatini davlat bankining oboroti 1924 yil 1 oktyabrda 476600 chervonni tashkil etgan²⁸. Namanganda sanoatni rivojlanishi natijasida shahar byudjeti ham o'sdi. 1924-1925 yillarda Namangan shahri byudjeti 331974 rublni tashkil etgan.

Namangan shahrida bir funt yarim oq non 2 tiyin, uy noni 3 tiyin, karam 3 tiyin, lavlagi 80 tiyin, kartoshka 50 tiyin, sabzi 50 tiyin, rus asali 10 tiyin, shakar 8 tiyin, sigir 50 rubl, ot 195 rubl, eshak 35 rubl, ming dona gugurt 5 tiyin bo'lgan.

²⁶ НВДА, Р.796-фонд, 1-рўйхат, 117-иш, 3-варақ.

²⁷ НВДА, Р.796-фонд, 1-рўйхат, 117-иш, 5-варақ.

²⁸ НВДА, Р.796-фонд, 1-рўйхат, 117-иш, 6-варақ.

1916 yilda Namangan shahrining obodonchilik ishlariga byudjetdan 15460 rubl, shahar ko'chalarini yoritish uchun esa 10 ming rubl ajratilgan²⁹.

1918 yil mayda Namangan shahar ishchi, dehqon va askarlarning I-yig'ilishi bo'lib, unda Inomjon Nizomboev Sovdepni predsedateli etib saylandi. Inomjon Nizomboevni tashabbusi bilan Namangan shahrida xalq ta'limni rivojlanishi, shuningdek sog'liqni saqlash va kommunal xizmat ko'rsatishda bir qator ijobiy ishlar qilindi. 1921–1926 yillarda shaharda tashqi ko'rinishi bilan boshqalardan ajralib turuvchi 4 ta yangi maktablar barpo etilgan³⁰. Maktab xovlisida chinor daraxtlari o'tkazilgan bo'lib, bu chinorlarning ko'pchiligi hozirgi kunga qadar saqlanib qolgan.

1924 yilda Namangan shahridagi 9153 ta bino mahalliy xo'jalik bo'limiga qarashli bo'lgan. Shahardagi 12 ta bino mahalliy xo'jalik tasarufida bo'lgan shunindek, mahalliy o'zini-o'zi boshqarish organiga tegishli 68 ta bino, 9 ta bino davlat muassasalariga, 2 tasi jamoatchilik uyushmalariga, 8 tasi maktab va internatlarga, qolganlarida esa xonadonlar joylashgan³¹. Shu yili shahardagi 22 ta uy ta'mirlanib, unga 5451 rubl, shahardagi binolarni yoritish uchun 3401 rubl sarflangan. Shahardagi katta yo'lni kesib o'tish joylarida 3 ta ko'priklar qurildi, hamda mahalliy kurilish materiallari yordamida 33 ta kichkina ko'priklar qayta ta'mirlandi³². Biroq, kerakli vositalarni etishmasligi tufayli shahar ko'cha va tratuarlari qayta ta'mirlanmay qoldi. 1924 yildan boshlab shaharda aholi yashashi uchun turar joylar, madaniy-maishiy muassasalar va kommunal ob'ektlari qurilishi boshlandi. 1925 yilda shahardagi mahalliy xo'jalik bo'limlarining daromadi 116,7 ming rublni tashkil etgani xolda, shahardagi turar joylar qurilishiga 45,6 ming rubl ajratilgan. 1927 yil avgustda Namanganda sodir bo'lgan kuchli zilzila natijasida shahardagi ko'plab aholi turar joylari vayron bo'ldi. Namanganda zilziladan aziyat chekkan aholi uchun hukumat kumagida ko'plab turar joylar qurilgan. Masalan,

²⁹ НВДА, Р.796-фонд, 1-руйхат, 97-иш, 3-варақ.

³⁰ НВДА, Р.796-фонд, 1-руйхат, 97-иш, 4-варақ.

³¹ НВДА, Р.13-фонд, 1-руйхат, 17-иш, 9-варақ.

³² НВДА, Р.796-фонд, 1-руйхат, 97-иш, 5-варақ.

1927 yildan 1929 yilgacha umumiy maydoni 11940 kv metrni tashkil qilgan 81 ta ko'p qavatli uylar qurib bitkazilgan³³. 1929 yilda shahardagi mahalliy xo'jalik bo'limining daromadi 660567 ming rublni tashkil etgan³⁴.

1941 yilning 6 martida Namangan viloyati tashkil etildi. Viloyatning umumiy maydoni 7,44 ming kv. km., aholisi 2139,7 ming kishi, shundan shaharda 795,2 ming kishi, qishloqda 1344,5 ming kishi istiqomat qiladi. Aholi zichligi 1 km² ga 287 kishidan to'g'ri keladi. Viloyat markazi Namangan shahri bo'lib, aholisi 420,1 ming kishini tashkil etadi³⁵.

Xulosa qilib aytganda, sovet hokimiyatining xususiy mulk va tadbirkorlikka qarshi kurash siyosati mamlakatning an'anaviy xo'jalik hayotini izdan chiqarib, xalqqa qattiq talofat etkazdi hamda davlat monopoliyasining o'rnatilishiga olib keldi.

³³ НВДА, Р.796-фонд, 1-рўйхат, 97-иш, 6-варақ.

³⁴ НВДА, Р.796-фонд, 1-рўйхат, 97-иш, 6-варақ.

³⁵ Namangan viloyatining 1991-2007 yillar ijtimoiy-iqtisodiy ko'rsatkichlari. Izoh: Mazkur ma'lumotlar qo'lyozma (kom'pyuterda terilgan nusxa) shaklida olingan bo'lib, (muhr va imzo bilan tasdiqlangan) tadqiqotchining shaxsiy arxivida saqlanmoqda. – Б.1.

II BOB. MUSTAQILLIK YILLARIDA NAMANGAN VILOYATI BOZORLARINING RIVOJLANISI

2.1. Mustaqillik yillarida bozorlar faoliyatini tartibga solishga oid O'zbekiston Respublikasi Prezidenti va Hukumatining Farmon va qarorlari va savdo inshooatlarini tashkil etish qoidalari

O'zbekiston Respublikasi mustaqillikka erishganidan so'ng yurtimiz hududida turli sohalar kabi savdo-sotiq tizimini tartibga solish, bozorlar faoliyatini yaxshilash maqsadida bir qator qaror va farmonlar qabul qilindi. Chunki, bozorlar mamlakat iqtisodiyotining qon-tomirlaridan biri hisoblanadi. Shularni inobatga olgan holda bozorlarning huquqiy maqomi jamiyatning iqtisodiy va siyosiy taraqqiyotida muhim rol' o'ynab kelgan. Quyida so'nggi yillarda qabul qilingan qaror va farmonlardan ba`zilarini keltirib o'tamiz.

Bozorlar va savdo komplekslarini tartibga solishga oid O'zbekiston Respublikasi Prezidenti va Hukumatining farmon va qarorlari:

1. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2000 yil 12 avgustdagi "Bozorlar faoliyatini tashkil etishni takomillashtirish to'g'risida"gi 315-sonli qarori.

2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2010 yil 08 yanvardagi "Respublika soliq organlari tizimini yanada modernizatsiya qilish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ 1257-sonli qarori.

3. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2010 yil 26 apreldagi «Dehqon bozorlari va savdo komplekslari faoliyatini tashkil qilishni yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi PQ 1326-sonli qarori.

4. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Maxkamasining 2012 yil 28 avgustdagi "Bozorlar va savdo komplekslari faoliyatini tartibga solishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi 253-sonli qarori

5. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2010 yil 05 apreldagi "Avtotransport vositalarini vaetincha saelash bo'yicha pulli xizmatlar ko'rsatuvchi

yuridik shaxslar faoliyatini tartibga solish chora-tadbirlari to'g'risida"gi 63-sonli qarori³⁶.

6. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2011 yil 17 noyabrdagi "Fiskal xotiraga ega bo'lgan nazorat-kassa mashinalarining qo'llanishini yanada takomillashtirishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi 306-sonli qarori.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2010 yil 26 apreldagi «Dehqon bozorlari va savdo komplekslari faoliyatini tashkil qilishni yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi PQ 1326-sonli qarori va O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2012 yil 28 avgustdagi "Bozorlar va savdo komplekslari faoliyatini tartibga solishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi 253-sonli qarori hamda unda belgilangan vazifalarga alohida to'xtalib o'tamiz.

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2010 yil 26 apreldagi "Dehqon bozorlari va savdo komplekslari faoliyatini tashkil qilishni yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ 1326-sonli qarori bilan:

– bir oy muddatda dehqon (oziq-ovqat) bozorlari, ixtisoslashtirilgan va buyum bozorlari (savdo komplekslari) pasportlarini tuzishni nihoyasiga etkazib, ushbu pasportlarga ularning ixtisoslashuvi va ish tartibi, turg'un savdo nuqtalari va savdo o'rinlari miqdori va joylashuvi, ularning hududida mavjud bo'lgan infrastruktura ob'ektlari va ko'rsatilayotgan xizmat turlari to'g'risidagi ma'lumotlarni albatta kiritsinlar;

– 2010 yilning 1 iyuniga qadar 100 ta va undan ko'proq turg'un savdo nuqtalari va savdo o'rinlari mavjud bo'lgan barcha bozorlar, savdo komplekslari va ularning filiallarida davlat soliq xizmati organlarining xodimlari tomonidan yig'imning to'liqligini har kuni tekshirgan holda faqat bank tizimi orqali bir martalik yig'im va ijara to'lovlari undirilishining avtomatlashtirilgan tarzda hisobga olinishini majburiy tartibda joriy qilsinlar;

– 2010 yilning 1 iyunigacha bo'lgan muddatda bozorlar hududida va ularga tutash hududlarda joylashgan barcha avtotransport vositalarini vaqtincha saqlash

³⁶ Халқ сўзи. 2010 йил 1 апрель.

joylarining belgilangan tartibda bozorlar va savdo komplekslariga topshirilishini ta'minlasinlar, ularning nazorat-kassa mashinalari va to'lov terminallari bilan jihozlanishini, shuningdek 300 ta va undan ko'proq turg'un savdo nuqtalari va savdo o'rinlariga ega bo'lgan bozorlar va savdo komplekslarida mashinalarning kirish va chiqish vaqtini qayd etib turadigan elektron hisoblagichlar majburiy o'rnatilishini belgilab qo'yildi;

– 2010 yilning 1 iyuligacha bo'lgan muddatda davlat veterinariya xizmati va sanitariya-epidemiologiya nazorati organlarini jalb etgan holda har bir dehqon (oziq-ovqat) bozorida bozorga olib kelinayotgan oziq-ovqat mahsulotlari sifatining ekspress-analiz laboratoriyalarini tashkil qilib, tegishli sertifikat bersinlar va tegishli sertifikatga ega bo'lmagan mahsulotlarning sotilishini taqiqlandi;

– 2011 yilning 1 yanvariga qadar muddatda barcha ixtisoslashtirilgan va buyum bozorlarini nazorat-kassa mashinalari va to'lov terminallari bilan jihozlangan turg'un savdo nuqtalaridan iborat bo'lgan savdo komplekslari etib qayta tashkil qilsinlar, iste'molda bo'lgan mol-mulk savdosi bo'yicha bozorlar bundan mustasno.

– bozorlardagi savdo o'rinlari jismoniy shaxslarga faqat ularning yakka tartibdagi tadbirkor sifatida ro'yxatdan o'tgani to'g'risidagi guvohnomasi mavjud bo'lgan taqdirdagina beriladi, o'zi etishtirgan qishloq xo'jalik mahsulotlarini, shuningdek iste'molda bo'lgan tovarlarni sotish hollari bundan mustasno;

– sotib olingan tovarlar va xizmatlar uchun xaridorlarga beriladigan kassa cheklarida soliq to'lovchining nomi va individual raqami (INN), xarid qilingan vaqti va sanasi, tovarning nomi, uning qiymati, kassa apparatining raqami to'g'risidagi ma'lumotlar mavjud bo'lishi kerak;

– bozorlarning hududida yer uchastkalari ajratib berilishiga, shuningdek bozorga tegishli ko'chmas mulk ob'ektlarini jismoniy va yuridik shaxslarga mulk qilib topshirilishiga yo'l qo'yilmaydi³⁷.

³⁷ Халқ сўзи. 2010 йил 1 апрель.

Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar Kengashi, viloyatlar va Toshkent shahar hokimliklari:

– hududiy moliya va soliq organlari bilan kelishilgan holda bozorlar va savdo komplekslarining ma'muriyati tomonidan undirib olinadigan bir martalik yig'imlar, ijara to'lovi va ko'rsatiladigan xizmatlar qiymati miqdorlarini O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi va Davlat soliq qo'mitasi tomonidan har yili belgilanadigan minimal miqdorlardan past bo'lmagan miqdorda har yili tasdiqlash belgilab qo'yildi;

Belgilansinki, 2010 yilning 1 iyulidan boshlab ro'yxat bo'yicha tovarning olib kirilishi va bojxona to'lovlari to'lanishi faktini tasdiqlaydigan bojxona deklaratsiyasi rasmiylashtirilgan sanadan keyin 12 oy o'tgach tayyor import iste'mol tovarlari sotuvga qo'yilishi hamda chakana savdoda realizatsiya qilinishiga yo'l qo'yilmaydi.

Tovarning olib kirilishi va bojxona to'lovlari to'lanishi faktini tasdiqlaydigan bojxona deklaratsiyasi rasmiylashtirilgan sanadan keyin 12 oy o'tgach tayyor import iste'mol tovarlarining realizatsiya qilinishi savdo qoidalarini buzish (tovarlarni hujjatlarsiz realizatsiya qilish) deb hisoblansin va qonun hujjatlariga muvofiq javobgarlik choralari belgilab qo'yildi³⁸.

2010 yilning 1 oktyabridan boshlab quyidagilarni nazarda tutuvchi tartib joriy qilindi:

– aholi bilan pul hisob-kitoblarini amalga oshiruvchi xo'jalik sub'ektlari tomonidan qo'llanadigan nazorat-kassa mashinalari yagona texnik talablarga mos kelishi va "O'zstandart" agentligi tomonidan belgilangan tartibda majburiy sertifikatsiyadan o'tkazilishi;

– sertifikati bo'lmagan yoki belgilangan yagona texnik talablarga javob bermaydigan nazorat-kassa mashinalaridan foydalangan holda chek berish aybdor shaxslarni qonun hujjatlariga muvofiq javobgarlikka tortish uchun asos bo'ladi.

³⁸ Халқ сўзи. 2010 йил 1 апрель.

2. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2012 yil 28 avgustdagi "Bozorlar va savdo komplekslari faoliyatini tartibga solishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi 253-sonli qarori bilan:

Ushbu qaror bilan O'zbekiston Respublikasi bozorlarida savdo faoliyatini tashkil etish qoidalari hamda O'zbekiston Respublikasi savdo komplekslari faoliyatini tashkil etish qoidalari tasdiqlandi.

1-ilova. Bozorlarda savdo faoliyatini tashkil etish qoidalari

Mazkur qoidalar O'zbekiston Respublikasi bozorlarida savdo faoliyatini tashkil etishga qo'yiladigan asosiy talablarni belgilaydi.

Ushbu qoidalarda quyidagi atamalar va tushunchalardan foydalanilgan:

- dehqon (oziq-ovqat) bozori;
- chorva mollari, parrandalar va boshqa hayvonlar bozori;
- ilgari foydalanishda bo'lgan mol-mulkni sotish bozori;
- dam olish kuni yarmarkasi.

Bozorga qo'yiladigan umumiy talablar: Qoidalarning mazkur bo'limida bir necha, xususan, bozorda nimalar bo'lishi zarur, bozor hududi qanday ajratib qo'yilishi kerak, bozor hududida nimalar taqiqlanishi, tanishish uchun qulay joylarda nimalar o'rnatilishi, o'lchash-tortish vositalaridan foydalanish, umumiy ovqatlanish, servis xizmati ko'rsatish va tijorat banklari ob'ektlarini joylashtirish, nazorat-kassa mashinalarini va bank plastik kartalaridan to'lovlarni qabul qilish bo'yicha to'lov terminallarini qo'llash va boshqa masalalar o'z aksini topgan³⁹.

Jumladan, Qoidalarning 20-bandiga asosan, bozor hududida savdoni amalga oshirishda fiskal xotirali nazorat-kassa mashinalarini va bank plastik kartalaridan to'lovlarni qabul qilish bo'yicha to'lov terminallarini qo'llash qonun hujjatlari bilan tartibga solinadi. Bir martalik yig'imlar, ijara to'lovlari va avtomatlashtirilgan hisobga olishning bank tizimi orqali ko'rsatiladigan xizmatlar uchun beriladigan cheklar nazorat-kassa mashinalarini va bank plastik kartalaridan to'lovlarni qabul qilish bo'yicha to'lov terminallarining cheklariga tenglashtiriladi.

³⁹ Халқ сўзи. 2010 йил 1 апрель.

Aholi bilan naqd pulli hisob-kitoblarni amalga oshiruvchi xo'jalik yurituvchi sub`ektlar tomonidan qo'llaniladigan nazorat-kassa mashinalari yagona texnik talablarga muvofiq bo'lishi kerak va belgilangan tartibda majburiy sertifikatlanishi zarur.

Sertifikatga ega bo'lmagan yoki belgilangan yagona texnik talablarga javob bermaydigan nazorat-kassa mashinalaridan foydalanilgan xolda chek berish aybdor shaxslarni qonun hujjatlariga muvofiq javobgarlikka tortish uchun asos hisoblanadi.

Huquq va majburiyatlar: Qoidalarining ushbu bo'limida sotuvchilarning huquq va majburiyatlari, bozor ma`muriyati tomonidan nimalar ta`minlanishiga oid masalalar o'z aksini topgan.

Masalan, Qoidalarining 26-bandiga binoan bozor ma`muriyati:

- sotuvchilarning tegishli texnik talablarga, sanitariya normalari qoidalariga muvofiq bo'lgan anjomlarga extiyojini;

- xaridorga xizmat ko'rsatish chog'ida paydo bo'ladigan nizoli vaziyatlarning sabablarini bartaraf etish bo'yicha chora-tadbirlar ko'rilishini;

- sotuvchilarning minimal kasbiy tayyorgarligi bo'yicha tadbirlar amalga oshirilishini;

- tuman (shahar) hokimligida ro'yxatdan o'tkazilgan muloxazalar va takliflar daftarlarining mavjud bo'lishini va ular xaridorlarning birinchi talabiga binoan taqdim etilishini;

- banklarning inkassatsiya punktlari va kassalari ishi uchun eng qulay shart-sharoitlar yaratilishini, bir martalik yig'im, ijara to'lovlari va ko'rsatilayotgan xizmatlar uchun tushumlarning banklar kassalariga topshirilishini ta`minlashga ko'maklashishni, bozorlar va ularning filiallari hududida o'z faoliyatini amalga oshiruvchi xo'jalik yurituvchi sub`ektlar naqd pul tushumining har kuni inkassatsiya qilinishi (topshirilishi) ni ta`minlaydi.

Savdo o'rinlarini berish va bozorning ish rejimi: Qoidalarining mazkur bo'limida savdo o'rinlari kimlarga berilishi, bir savdo o'rni o'lchami, bozorning

ish rejimi, bozorni yoki aloxida savdo ob`ektini vaqtinchalik yopilishi kabi masalalar ko`rsatilgan⁴⁰.

Masalan, Qoidalarning 30 bandiga ko`ra, savdo o`rinlari jismoniy shaxslarga faqat ularning yakka tartibdagi tadbirkor sifatida davlat ro`yxatidan o`tganligi to`g`risida guvohnomasi bo`lgan taqdirda beriladi, o`zi etishtirgan qishloq xo`jalik mahsulotlari, chorva mollari, parandalar va boshka tovarlarni, shuningdek ilgari foydalanishda bo`lgan tovarlarni sotish bundan mustasno;

31-bandiga ko`ra, bozolarida bir savdo o`rni o`lchami ko`pi bilan 1,2 pogon metr etib belgilanadi, poliz mahsulotlari, gullar va ko`chatlar, idishli va o`ramli mahsulotlar sotishda esa 6,0 kv. metrga teng o`lchamda belgilanadi. Belgilangan o`lchamdan ortiq bo`lgan har bir o`rin uchun bozor ma`muriyati tomonidan to`liq miqdorda to`lov undiriladi⁴¹.

Bozorlarda bir martalik yig`imni, ijara to`lovlarini va xizmatlar uchun to`lovlarni undirish: Qoidalarning ushbu bo`limida bozor ma`muriyati tomonidan bir martalik yig`imni, ko`rsatilgan xizmatlar uchun va ijara to`lovlarini qabul qilish tartibi, qishloq xo`jaligi mahsulotlarini tushirish maqsadida avtomashinalarning kirishi uchun to`lov va boshqalarga oid masalalar nazarda tutilgan.

Masalan, Qoidaning 41-bandida bozor ma`muriyatiga quyidagi masalalar yuklatilgan:

- Bozor xududida savdoni amalga oshirishga oid davlat tilida yozilgan plakatlar, bir martalik yig`im, ijara to`lovi stavkalari va boshqa xizmatlar ro`yxati va qiymatini kayd etgan holda ko`rinarli joyga joylashtirish.

- To`lovlarni undirib olish turg`un punktlar soni 100 sotuvchiga(savdo o`rinlariga) 1 ta punkt bo`lishi kerak.

- Bozorlarda undiriladigan to`lovlarni asosiy shartlari, ko`rsatiladigan xizmatlar ro`yxati va qiymati radiouzel orqali muntazam e`lon qilib boriladi.

⁴⁰ Ўзбекистон Республикаси Қонунлари тўплами. – Тошкент, 2010. – Б. 14.

⁴¹ Халқ сўзи. 2010 йил 1 апрель.

– To'lovlarni to'lashdan bosh tortgan sotuvchilarni aniklash maqsadida savdo rastalari va umuman bozor xududini nazoratchilar tomonidan muntazam aylanib chiqiladi.

– To'lovlarni to'lash tartibini buzuvchi shaxslar aniklanganda Davlat solik xizmati organi xamda xuquqni muxofaza qiluvchi organlar bilan tezkor aliqalar o'rnatish.

Qoidaning 42- bandida esa,

– Bozor ma'muriyati tomonidan to'lovlarni qabul qilishda nazorat kassa mashinalari va to'lov terminallarini majburiy qo'llagan xolda qabul qilinadi.

– 100 ta va undan ko'p to'rg'un savdo shaxobchalariga ega bo'lgan bozorlarda to'lovlar faqat bank tizimi orqali avtomatlashtirilgan tarzda undiriladi.

Bunda bir matalik yig'imni to'lash savdo o'rnini berishda, savdo boshlangunga qadar amalga oshiriladi. Chorva mollari, parandalar va boshqa xayvonlarni sotish bozorlarida bir matalik yig'im bozor xududida undiriladi.

Shuningdek, Qoidalarning 46-bandiga muvofiq bozor hududida qishloq xo'jaligi mahsulotlarini tushirish maqsadida avtomashinalarning kirishi uchun to'lov undirilmaydi.

Tovarlarga qo'yiladigan talablar: Qoidalarning ushbu bo'limida dehqon bozorlarida sotiladigan tovarlarning asosiy turlari, kimlar tomonidan qishloq xo'jaligi mahsulotlarining sotilishi (jumladan, import qilingan), nooziq-ovqat iste'mol tovarlari bilan chakana savdo qilish, qishloq xo'jaligi mahsulotlarini sotishda sotuvchilarda nimalar bo'lishi lozimligi kabi masalalar o'z aksini topgan.

Masalan, Qoidaning 47-bandiga ko'ra, qishloq xo'jaliga oziq-ovqat mahsulotlari, ularni qayta ishlashdan olingan mahsulotlar, yordamchi xo'jaliklar va xunarmadchilik mahsulotlari;

Ko'chatlar, urug'liklar, gullar va ko'chatlar dehqon bozorlarida sotiladigan tovarlarning asosiy turlari xisoblanadi.

Qoidaning 48-bandiga asosan, Dehqon bozorlarida qishloq xo'jaligi mahsulotlarini sotish:

jimoniy shaxslar- dehqon va fermer xo'jaliklari vakillari, bog'bonlar va polizchilar, yakka tartibdagi tadbirkorlar tomonidan- jixozlangan savdo o'rinlarida, bir martalik yig'imni majburiy to'lagan xolda.

Yuridik shaxslar - qishloq xo'jaligi korxonalari, qishloq xo'jaligi mahsulotlarini qayta ishlash va savdo korxonalari tomonidan- to'rgun savdo shaxobchalari orqali, nazorat kassa mashinalari va to'lov terminallarini majburiy qo'llagan, belgilangan tartibda naqd pul tushumlarini bankka topshirgan xolda sotishga ruxsat etiladi.

Qoidalarining 49-bandiga asosan, dehqon bozorlarida savdo xarid qilish korxonalari tomonidan qishloq xo'jaligi mahsulotlarini xarid qilish, tayyorlash va sotish ham amalga oshirilishi mumkin.

Ilgari foydalanishda bo'lgan mol-mulkni sotish bozorlari: Qoidalarining ushbu bo'limida tovarlarning asosiy turlariga nimalar kirishi, ushbu bozorlarda nimalar taqiqlanishi ko'rsatilgan.

Masalan, Qoidalarining 55-bandiga binoan, ilgari foydalanishda bo'lgan xo'jalik tovarlari va maishiy texnika, mebel', kiyim-bosh, qurilish materiallari, transport vositalari, shu jumladan, ularga ehtiyot qismlar va ilgari foydalanishda bo'lgan boshqa tovarlar ilgari foydalanishda bo'lgan mol-mulkni sotish bozorida sotiladigan tovarlarning asosiy turlari hisoblanadi.

56-bandiga binoan, tayyor armiya anjomlarini va belgilangan namunadagi kiyim-boshni, harbiy turdagi boshqa tovarlarni, muassasalar, tashkilot va korxonalar shtampi bosilgan choyshablar, ichki ishlar organlarida qo'llaniladigan mahsus vositalar va mahsus aslaha-anjomlar sotish xamda qonun xujatlarida taqiqlangan boshqa tovarlar sotish taqiqlangan.

Dam olish kuni yarmarkalari: Qoidalarining bu bo'limida Dam olish kuni yarmarkalarini o'tkazish joyi va muddatlari to'g'risidagi qaror kim tomonidan

qabul qilinishi, bu kunlari qanday tovarlarni sotish mumkinligi, qanday hujjatlar bo'lishi kerakligi va hokazo ko'rsatilgan⁴².

Masalan, Qoidalarning 59-bandiga ko'ra dam olish kuni yarmarkalari hududida qishloq xo'jaligi mahsulotlarini va ularni qayta ishlashdan olingan tovarlarni, shuningdek ilgari foydalanishda bo'lgan nooziq-ovqat iste'mol tovarlarini sotishga ruxsat etiladi.

Bozor faoliyatini nazorat qilish: Qoidaning 62-bandiga ko'ra Bozorlar va unga tutash avtotransport vositalarini vaqtincha saqlash joylari, shuningdek ular xududidagi tadbirkorlik sub`ektlari faoliyatini, soliq to'g'risidagi qonunlar va qoidalarga rioya qilinishini nazorat qilish belgilangan tartibda Davlat soliq xizmati organlari tomonidan amalga oshiriladi.

64-bandiga ko'ra, bozorda sanitariya va veterinariya normalari va qoidalariga, shuningdek standartlarga, yong'in xafsizligi normalari va qoidalariga rioya etilishini nazorat qilish- Sog'liqni saqlash vazirligining sanitariya-epidimologiya nazorati organlari, Qishloq va suv xo'jaligi vazirligining davlat veterinariya xizmati organlari va Ichki ishlar vazirligining Davlat yong'in xafsizligi xizmati tomonidan amalga oshiradi.

65-bandiga ko'ra, ushbu qoidalarga rioya etilishi yuzasidan ijro va nazoratni tashkil etish uchun shaxsiy javobgarlik viloyatlar, shaxarlar va tumanlar hokimlariga, shuningdek bozorlar ma'muriyatiga yuklanadi.

Bozor faoliyatini to'xtatib turish: Qoidaning 68-bandiga ko'ra, er uchastkasidan foydalanish xuquqini belgilovchi xujjatlar mavjud bo'lmaganda, shuningdek yer uchastkasidan belgilangan maqsaddan boshka maqsadda foydalanilganda, sanitariya va veterinariya qonun xujjatlari normalarining to'g'ridan-to'g'ri xafli yuqumli kasalliklarni tarqalishiga sabab bo'ladigan xolatlar muddatida bartaraf etilmasa, ekologiya talablarining buzilishi holatlari belgilangan muddatda bartaraf etilmasa, yong'in xafsizligi talablariga rioya etilmaganda, nazorat kassa mashinalari va to'lov terminallarini qo'lanish, shuningdek naqd pul tushumini

⁴² Ўзбекистон Республикаси Қонунлари тўплами. – Тошкент, 2010. – Б. 16.

bank kassalariga topshirish tartibi muntazam buzilgan xolatlarda bozor(savdo ob`ekti) faoliyati vaqtincha to`xtatib turilishi mumkin.

2-ilova. Savdo komplekslari faoliyatini tashkil etish qoidalari: Qoidalarining 2-bandiga muvofiq, savdo kompleksi deganda chakana savdo va xizmatlar ko`rsatish soxasining turg'un ob`ektlari joylashgan yagona er uchastkasida qurilgan bino va (yoki) inshootga yoxud binolar va (yoki) inshootlar kompleksiga mulk huquqi bilan yoki boshqa qonuniy asosda egalik qiluvchi yuridik shaxs tushuniladi.

Qoidalarining 4-5-bandlariga asosan, savdo kompleksi faoliyatini tashkil etish yuridik shaxs tomonidan unga foydalanish uchun yoxud ijaraga berilgan er uchastkasida qonun hujjatlarida belgilangan tartibda ta`minlanadi. Savdo kompleksi faoliyat ko`rsatishi uchun foydalanishga berilgan yer uchastkasidan boshqa maqsadlarda foydalanilishiga yo`l qo`yilmaydi. Ko`rsatib o`tilgan yuridik shaxs har qanday tashkiliy-huquqiy shaklda tashkil etiladi.

Faoliyat ko`rsatayotgan bozor negizida qayta tashkil etilgan savdo kompleksi muassislaridan bittasi majburiy tartibda ustav fondidagi ulushi kamida 51 foiz bo`lgan mahalliy davlat hokimiyati organi bo`lishi kerak.

Savdo kompleksini tashkil etish Qoraqalpog`iston Respublikasi Vazirlar Kengashi, viloyatlar va Toshkent shahar hokimliklarining savdo kompleksi tashkil etish uchun yer uchastkasi ajratish to`g`risidagi qarori asosida amalga oshiriladi.

Ushbu Qoidalar "Umumiy qoidalar", "Savdo komplekslarini tashkil etish tartibi", "Savdo komplekslariga qo`yiladigan umumiy talablar", "Savdo kompleksini boshqarish. Sotuvchilarning va savdo kompleksi ma`muriyatining huquq va majburiyatlari", "Savdo kompleksining ish rejimi", "Savdo kompleksi daromadlarining manbalari, ijara to`lovini va ko`rsatilayotgan xizmatlar uchun to`lovni undirishni tashkil etish", "Savdo komplekslari ishlarini nazorat qilish", "Savdo komplekslarida tovarlarni sotishga qo`yiladigan talablar", "Savdo kompleksi faoliyatini to`xtatib turish yoki to`xtatish" kabi bo`limlardan iborat.

2.2. Mustaqillik yillarida Namangan bozorlari faoliyatiga bir nazar

Bugungi kunda mamlakatimiz olib borayotgan tashqi siyosatning tag-zamirida hech kimga sir bo'lmagan bir maqsad turibdi — O'zbekiston manfaati. Hukumatimizning bu sohadagi barcha qadam va harakatlari faqat ana shu ezgu maqsadni amalga oshirishga qaratilgan. Qo'lga kiritilgan yutuqlar avvalo iqtisodiyotning rivojlanishi, uning o'sish sur'atlari, makroiqtisodiy ko'rsatkichlarning o'zaro mutanosibligi, inflyatsiya darajasining pasayishi, milliy valyutamizning barqarorligi va uning xarid quvvati, eksport va oltin-valyuta zaxiramizning ortib borayotgani, bir so'z bilan aytganda, butun iqtisodiyotimizning izchil tarzda rivojlanayotganidan kelib chiqqan holda baho beramiz.

Namangan viloyati iqtisodiyotida chuqur tarkibiy o'zgarishlarni amalga oshirish g'oyat muhim ahamiyat kasb etashini namanganliklar allaqachon anglab etishgan. Buning negizini mahalliy xom ashyoni qayta ishlash va jahon bozoridagi keskin raqobatga bardosh bera oladigan mahsulotlar tayyorlashga asoslangan sanoat tarmoqlarining etakchi o'ringa chiqishi va xizmat ko'rsatish sohalarining tez sur'atlar bilan rivojlanishi tashkil qiladi. SHuni ta'kidlash kerakki, mustaqillik yillarida yalpi ichki mahsulot tarkibida sanoatning ulushi 11 foizdan 25 foizga, xizmat ko'rsatish sohalarining ulushi esa 18 foizdan 42 foizga yoki 2 barobardan ziyod oshdi⁴³.

Bugungi kunda faoliyat ko'rsatayotgan korxonalarni jadal modernizatsiya qilish va texnik qayta jixozlashni ta'minlash, yuksak texnologiyalar asosida ishlaydigan avtomobilsozlik va gaz-kimyoy, elektr texnikasi va to'qimachilik, oziq-ovqat va farmatsevtika, axborot va telekommunikatsiyalar tarmog'i hamda boshqa yo'nalishlardagi yangi va zamonaviy ishlab chiqarishlarni tashkil etishga qaratilgan faol investitsiya siyosatini yuritishga ustivor ahamiyat berilmoqda.

Xorijiy va mahalliy sarmoyadorlar uchun qulay, har tomonlama imtiyozli investitsiya muhiti yaratildi. Natijada taraqqiyot yillarida mamlakatimiz iqtisodiyotiga 100 million dollardan ortiq investitsiya jalb qilindi. Buning 25 milliard

⁴³ Наманган ҳақиқати. 2012 йил 16 апрель.

dollardan ziyodini xorijiy sarmoyadorlarning mablag'lari tashkil etadi⁴⁴. Jahonning 53 mamlakati bilan tashqi iqtisodiy aloqalar o'rnatildi. Bugungi kunda 42 ta uzoq va 11 ta yaqin xorijiy davlatlar bilan savdo-iqtisodiy aloqalar o'rnatilgan bo'lib, viloyatning 138 ta tashkiloti eksport va import amaliyotlarida ishtirok etmoqda.

Rossiya Federatsiyasi va Turkiya davlatlari viloyatimizga yirik sarmoyalar qo'ymoqda. Xitoy, Germaniya, Italiya, Angliya, Yaponiya, Shveysariya, Gollandiya, Ispaniya, Kanada, Frantsiya, Litva, Gongkong, Pol'sha, Isroil, Gruziya, Che-xiya, Pokiston, Qirg'iziston, Qozog'iston va boshqa mamlakatlar investorlarining viloyatimizga bo'lgan qiziqishi ortib bormoqda. Mustaqillik yillarida ushbu mamlakatlarning sarmoyadorlari ishtirokida viloyatda 70 dan ortiq qo'shma korxonalar barpo etildi.

Paxta tolasidan ip kalavasi ishlab chiqarishga ixtisoslashgan O'zbekiston Litva "Klayna Tekstil", qishloq xo'jaligi mahsulotlarini qayta ishlash ixtisoslashgan O'zbekiston-Lixtenshteyn "Chust Golden Frut", ip kalavasi ishlab chiqarishga ixtisoslashgan O'zbekiston-Kipr "Sal Nam Teks" qo'shma korxonalari o'z mahsulotlarini qator xorijiy mamlakatlarga eksport qilmoqda.

Mustaqillik yillarida viloyat sanoat korxonalarining uzluksiz ta'minlash, ishlab chiqarish vositalarini oqilona joylashtirish, yangi korxonalar bunyod etish orqali ushbu sohaning rivojlanish sur'atlari yuksalib bordi.

Viloyatda 1992 yilda 12,8 mlrd. so'mlik sanoat mahsulotlari ishlab chiqarilgan bo'lsa, bu ko'rsatkich 1996 yilda 17,5 mlrd. so'mni, 2005 yilga kelib, 247 mlrd.so'mni tashkil etdi. 2005 yilda sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi solishtirma narxlarda 110 foiz bo'ldi⁴⁵.

Xalq iste'moli mollari ishlab chiqarish 119,1 mlrd. so'mni tashkil etib, 1996 yilga nisbatan 111,7 mlrd.so'mga ortdi. Oziq-ovqat, kundalik extiyoj mollari va qishloq xo'jaligi mahsulotlarini qayta ishlashdan olingan tovarlar bilan to'ldirishga keng e'tibor qaratilmoqda. O'tgan davr mobaynida ishlab chiqarish hajmi

⁴⁴ Наманган вилояти. Бунёдкорлик йўлида. 1991–2006. – Наманган, 2006. – Б. 28.

⁴⁵ Ўзбекистон иқтисодий ахборотномаси – 2006.– №1. – Б. 10.

o'sishi bilan birga sanoat korxonalarida yangi ishchi o'rinlari yaratildi, eskirgan texnologiyalarni modernizatsiya qilish, yangi texnologiyalar olib kirish ishlari amalga oshirildi⁴⁶.

Hozirgi kunda mamlakatimizda kichik va xususiy biznesning yalpi ichki mahsulot tarkibidagi ulushi 45 foizdan oshdi.

Mustaqillik yillarida ularning faoliyati samaradorligini oshirish maqsadida zarur me'yoriy-huquqiy baza, iqtisodiy va huquqiy kafolatlar yaratilgani, ayniqsa bozorlarimizni zarur tovarlar hamda xizmatlar bilan to'ldirish, aholi daromadi va farovonligini oshirishning asosiy manbai, odamlarni ish bilan ta'minlashga doir muammo-larni hal etishning muhim omili sifatida tadbirkorlik sub`ektlari jadal rivojlantirilgani bunga imkon berdi.

O'zbekiston Savdo-sanoat palatasi Namangan viloyati xududiy boshqarmasi tomonidan 2007 yilda quyidagi ishlar amalga oshirildi. 2007 yilning 1 oktyabriga qadar palataning viloyat bo'yicha a'zolari 493 taga etdi. SHundan 216 tasi yuridik, 277 tasi jismoniy shaxslardir. Ularga Axborot-maslahat markazlari tomonidan zarur xizmatlar o'z vaqtida ko'rsatib kelinmoqda. Jumladan, joriy yilning 9 oyi davomida boshqarmaning Namangan shahri va barcha tumanlardagi Axborot-maslahat markazlari tomonidan 4688 ta kichik biznes sub`ektlariga 15, 7 mln. so'mlik xizmatlar ko'rsatildi.

Shuningdek, ushbu markazlar tomonidan 1228 nafari ro'yxatdan o'tish oldidan tayyorganlik, 47 nafar investitsiya olish oldidan tayyorgarlik, 287 nafar-ri esa biznes-rejalar tayyorlash kurslarida o'qitildi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti sovrini uchun o'tkazilgan "Tashabbus-2007" ko'rik-tanlovining viloyat, shahar va tuman bosqichlari o'tkazildi. Unda 126 nafar tadbirkor, 53 nafar fermer va 101 nafar hunarmand ishtirok etdi.

Tadbirkorlik faoliyatini qo'llab-quvvatlash va ularga yaqindan yordam berish maqsadida 2007 yil fevral' oyida boshqarma binosida O'zLDP viloyat

⁴⁶ Отаҳўжаев А. Хусусий тadbirkorlik-иктисодиёт таянчи // Ўзбекистон иқтисодий ахборотномаси – .2007.– №9. – Б. 14.

Kengashi bilan hamkorlikda “O‘zbekiston Respublikasining yangi tahrirdagi Bojxona kodeksi loyihasi: “Taklif va mulohazalar” mavzusida davra suhbatini o‘tkazildi. Davra suhbatida 80 nafar tadbirkorlik sub`ektlari ishtirok etdi.

2007 yil 15 mart kuni Kosonsoy tumanida o‘tkazilgan “Do‘stlik” forumi doirasida tadbirkorlar ishlab chiqarayotgan mahsulotlar ko‘rgazmasi tashkil etildi. Ko‘rgazmada tadbirkorlik sub`ektlari milliy hunarmandchilik, tikuv-chilik va to‘quvchilik mahsulotlarni namoyish etishdi. Toshkentda O‘zbekiston-Avstriya ishbilarmon doiralari vakillari bilan o‘tkazilgan uchrashuvlarda viloyatimizdan 4 nafar tadbirkorlik sub`ektlari ishtirok etdi.

2007 yil 27–30 mart kunlari Toshkentda “ITF-Uzbekistan” ko‘rgazma-savdo markazida o‘tkazilgan “Oziq-ovqat texnologiyalari-2007” ko‘rgazmasida viloyatimizdan 3 nafar tadbirkorlik sub`ektlari qatnashdi. Ko‘rgazmada Namangan shahridagi xususiy tadbirkor Ravshan Rustamov va “Muqaddas-MX” xususiy firmasi rahbari Muhammadjon Boqijonov zamonaviy mini-texnologiyalarni jalb etish bo‘yicha kelishuv bayonnomasini imzoladilar.

2007 yil 1 may kuni viloyatda Prezidentimizning “Tadbirkorlik sub`ektlari tekshirishni yanada qisqartirish va uning tizimini takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi farmoni ijrosi bo‘yicha seminar uchrashuv o‘tkazildi. Unda 30 dan ziyod tadbirkorlik sub`ektlari hamda mutasaddi tashkilot vakillari ishtirok etdi.

2007 yil may oyida toshkentda bo‘lib o‘tgan “UZBEK INDUSTRIAL EXPO AND TEKSTILE-2007” ko‘rgazmasida viloyatdan “GRAND TEKSTILE AND SERVICE” xususiy korxonasi rahbari Ruslan Sodiqov va “Zamin Turkiston” mas`uliyati cheklangan jamiyati rahbari Ravshan Mirzamahmudovlar qatnashdi.

2007 yil Toshkentda bo‘lib o‘tgan estetik tibbiyot va kosmetologiya bo‘yicha II-Xalqaro konferentsiyada hamda “O‘zbekpomarkaz” MKK OAJning markaziy pavil’onida mustaqilligimizning 16 yilligiga bag‘ishlab o‘tkazilgan “O‘zbekistonda ishlab chiqarilgan – 2007” ko‘rgazmasida ham viloyatimiz tadbirkorlari faol ishtirok etdilar.

Viloyatdagi kichik biznes sub`ektlariga zamonaviy mini-texnologiyalarni jalb etish, eksportbop, import o`rnini bosuvchi mahsulotlar ishlab chiqarishni yo`lga qo`yish hamda mavjud ishlab chiqarishni rivojlantirish bo`yicha bir qator ijobiy ishlarni amalga oshirilmoqda, jumladan:

Namangan shahridagi “Saxovat CHamani” MCHJ ga Italiyaning “IFT” firmasining sut mahsulotlarini qayta ishlash texnologiyasi, To`raqo`rg`on tumanidagi “Xayrullo savdo-servis” xususiy firmasiga plombirli muzqaymoq ishlab chiqarish texnologiyasi, namanganlik xususiy tadbirkor Ravshan Rustamovga Rossiyaning “Russkaya Trapeza” zavodida ishlab chiqilgan, kuniga 500 kg. bolalar bo`tqasini tayyorlab, vakuum sharoitida qadoqlovchi RT-UM-11 texnologiyasi, Namangan shahridagi “Muqaddas-MX” xususiy firmasi uchun asalni vakuumli qadoqlash mini-texnologiyasi, Yangiqo`rg`on tumanidagi “Yangiqo`rg`on agromash” MCHJ korxonasi uchun Xitoyning “Xinjiang Tengxiang Color Printing CoLtd” kompaniyasi paxtani qayta ishlash texnologiyasi hamda CHust tumanidagi “Chust bosmaxonasi” MCHJ korxonasiga Xitoyning “Xengjiang tengxiang Color Printing CoLtd” kompaniyasi UK-9600 Gronx rusumli mini-texnologiyalarni olishda ko`maklashdi⁴⁷.

Boshqarma tomonidan viloyatda tadbirkorlik faoliyatini rivojlantirish, kichik biznes sub`ektlariga zamonaviy mini-texnologiyalarni jalb etish, ishlab chiqarilayotgan mahsulotlarni eksportga yo`naltirish maqsadida 2007 yilda XXR ning Urumchi shahrida o`tkazilgan “16-Xalqaro tashqi savdo-iqtisodiy Urumchi” yarmarkasiga viloyatdan 40 dan ziyod tadbirkorlik sub`ektlarining safari uyushtirildi.

Yarmarkada viloyatdan ishtirok etgan tadbirkorlik sub`ektlari tomonidan yog`och sirtiga o`ymakorlik ishlov beruvchi va gul bosuvchi, yog` ishlab chiqarish va suvni qadoqlash texnologiyalari, gul tikish mashinasi, tokarlik stanoklari va suv bilan kesish dastgohlarini sotib olish bo`yicha jami 402.5 ming AQSH dol-lari bahosida 7 ta shartnoma imzolandi. SHu bilan birga Xitoyning bir qator firma va kompaniyalari bilan kelgusidagi iqtisodiy aloqalar borasida o`zaro kelishib olindi.

⁴⁷ Наманган ҳақиқати. 2007 йил 10 октябрь.

Xozirda XXR ning Xenan' viloyatidagi "LIE JIANG GOU" mashinasozlik zavodi bilan hamkorlikda kichik ishlab chiqarish uskunalari, dastgohlar hamda butlovchi qismlar olib kelish borasida hamkorlik aloqalari o'rnatildi.

Namangan shahrida xususiy tadbirkor sifatida ish boshlagan poyabzal ustasi Nosirjon Hojimirzayev ham yurtimizda tadbir-korlarga yaratilayotgan keng imkoniyatlardan unumli foydalanib, aka-ukalari bilan hamkorlikda o'zining mo'ljaz kosibchilik ustaxonasini "Dambog' poyabzal savdo" kichik korxonasiga aylantirdi. Kichik korxonadan 2008 yilda 300 million so'mlikdan ziyod sifati va dizayni xorijnikidan qolishmaydigan, biroq ularga nisbatan ancha arzon kattalar va bolalar oyoq kiyimlari bozorga chi-qarildi. Mahsulotlarga Farg'ona vodiysidan tashqari, Samarqand, Buxoro, Qashqadaryo, Surxondaryo viloyatlarida talab katta Jamoa "Tashabbus-2008" ko'rik tanlovining viloyat bosqichida qatnashib, N. Hojimirzayev "Eng yaxshi hunarmand" nominatsiyasi bo'yicha e'tirof etildi.

O'zbekiston mustaqillikka erishganidan so'ng Respublikamizning barcha hududlari kabi Namangan viloyatida ham ko'plab bozorlar, savdo rastalari bunyod etildi, kengaytirildi, ta'mirlandi va bu ishlar yanada jadallik bilan davom etmoqda.

Xususan, "Chust Dehqon bozori" Namangan viloyati Chust tuman hokimining 1996 yil 22 maydagi 05/159-sonli qarori bilan tashkil etilgan⁴⁸. Namangan viloyat adliya boshqarmasida ro'yxatga olingan. Tashkiliy xuquqiy shakli: Ma'suliyati Cheklangan jamiyati (MCHJ). Yuridik manzili: Chust shahar So'fi-zoda ko'cha №1. Statistika organlaridan berilgan tarmoq kodi: 71270. Ixtisoslashuvi: Aholiga bozor xizmati ko'rsatish, qishloq xo'jalik mahsulotlarini sotish, umumiy ovqatlanish shaxobchalarini tashkil etish va avtomobillarga to'xtash joylari tashkil etishdan iborat. Davlat Soliq Xizmati organlaridan berilgan STIR raqami: 200068313. Xizmat ko'rsatuvchi banki: Mikrokredit bank CHust bo'limi, MFO 00250, hisob-raqami 20208000800362844001.

Filiallarning soni 4 ta.

⁴⁸ Чуст тумани бозорининг жорий архиви маълумотлари. 1-варақ. – Б. 11.

Filial nomi	MANZILI
Karkidon	Chust tuman Karkidon QFY
Chust Shoh bekati	Chust tumani G'ayrat KFY
Hayvon bozori	Chust shahar N.Turg'unov ko'chasi
Varzik	Chust tumani Varzik QFY

Ish rejimi: doimiy (haftada 7 kun). Tozalik (sanitar) kuni dushanba. Xodimlar umumiy soni 30 nafar bo'lib, shundan boshqaruvchi 4 nafar, kassir nazoratchilari 14 nafar, tarozibon 1 nafar, yordamchi ishchi xodimlar 11 nafar.

Umumiy er maydoni 5,81 ga, shundan markaziy bozorda 3,21 ga. Savdo faoliyati (savdo rastalari hamda savdo va xizmat ko'rsatuvchi turgan shaxobchalar) uchun ajratilgan er maydoni jami 1,4 ga shundan, markaziy bozorda 1,3 ga.

Markaziy bozoga kirib-chiqish joylari 4 ta bo'lib, shundan avtoulavlar uchun katta darvoza 2 ta. Savdo pavilionlar hamda ayvonlar soni 7 ta, markaziy bozorda 5 ta. Bozor rastalaridagi savdo joylari jami 600 ta, markaziy bozorda 520 ta, filiallarda 80 ta. Go'sht mahsulotlari shaxobchalari soni – 20 dona. Turg'un (statsionar) shaxobchalar jami soni 67 dona. Do'konlar 106 dona, umumiy ovqatlanish shaxobchalari – 5 dona, maishiy xizmat ko'rsatuvchi shaxobchalar – 56 dona.

Savdo va xizmat ko'rsatuvchi shoxobchalarda o'rnatilgan nazorat kassa-mashinalar soni 58 ta, to'lov terminallar soni 32 ta.

Bozor hududida mavjud kapital kurilmalari – ma'muriyat uchun aloxida bino, bank filiallari va kassalari, soliq tayanch punti bittadan xona. Laboratoriya uchun aloxida xona, tarozixona uchun aloxida xona, 2 ta xojatxona, 1 ta axlat tashlash maydonchasi, bundan tashqari bozor balansida mavjud:

- patta tulovlaridan naqd pullar uchun yangi tipdagi gaznalar - 1 ta;
- mahsulot va qo'l yuvish moslamalari – 4 ta;
- yong'in xavfsizligi qalqonlari– 4 ta;
- tarozilar – 86 ta;

- toshlar– 220 ta;
- kata yuk uchun mahsus – 3 ta;
- traktorlar soni 1 ta.

Bozorda tashkil qilingan pullik xizmat turlari:

- tosh-tarozini foydalanishga berish xizmati;
- katta yukni mahsus tarozida tortib berish xizmati;
- yuk aravachalar xizmati;
- mexmonxona xizmati.

Bozordagi tayyorlov savdo xarid (TZP) faoliyatini amalga oshirayotgan korxonaga “Shersuvor” MCHJ bo’lib, bozor daromadining tarkibi patta tushumidan – 48.1 %, pullik xizmatlar ko’rsatishdan – 3.9 %, turg’un savdo shaxobchalarini ijaraga berishdan – 48, 0 % daromad olinadi⁴⁹.

Bundan tashqari, Namangan viloyatida Kosonsoy tuman “Dehqon bozori”-ning ham o’z o’rni bor. Chunki, qadimdan Kosonsoy aholisi o’zining savdogarligi va hunarmandchiligi bilan Farg’ona vodiysida mashhur bo’lgan. 1620 yilgi mash`um zilzila natijasida Koson shahri ham vodiyning Axsikent, Andijon, Marg’ilon shaharlari singari jiddiy talofot ko’radi. Aynan mazkur zilzilalardan keyin shahar aholisining bir qismi boshqa yerlarga ko’chib ketadi. Lekin oradan bir oz vaqt o’tishi bilan shahardagi ahvol yaxshilanib, shahar qayta tiklanadi. O’z navbatida shuni ham ta`kidlab o’tish joizki ayna mazkur zilziladan so’ng Axsikent va Koson aholisi hisobiga Namangan shahri aholisi soni keskin ko’payishi kuzatiladi.

Qo’qon xonligi davrida Koson shahri xonlik hududidagi yirik shaharlardan biri sifatida o’z mavqeiga ega bo’lib kelgan. Aynan bu davrda Koson shahri xonlik tarkibiga kirgan 15 ta beklıklardan biri Koson bekligining markazi bo’lgan⁵⁰.

Mazkur bozor Namangan viloyat Kosonsoy tuman hokimining 2003 yil 11 sentyabr 425-qarori bilan tashkil etilgan. Hozirgi kunda bozorning 4 ta filiali

⁴⁹ Чуст тумани бозорининг жорий архиви маълумотлари. 1-варақю – Б. 14.

⁵⁰ Набиев Н.Р. Из истории Коканского ханства. – Т, 1973. – С. 109.

mavjud bo'lib, ularning 3 tasi Kosonsoy shahrida, 1 tasi Ququmboy qishlog'ida joylashgan.

Hozirgi kunda mazkur bozorda 527 ta savdo rastasi bo'lib, uning 506 tasi bozorning o'zida, qolgan 21 tasi filiallarda joylashgan. SHundan do'konlar – 128 ta, umumiy ovqatlanish shoxobchalari – 5 ta, maishiy xizmat ko'rsatuvchi shaxobchalar – 7 tani tashkil etadi.

Bozor hududida mavjud kapital kurilmalari – ma'muriyat uchun aloxida bino, bank filiallari va kassalari, soliq tayanch punkti bittadan xona. Laboratoriya uchun aloxida xona, tarozixona uchun aloxida xona, 2 ta hojatxona, 1 ta axlat tashlash maydonchasi bozor balansida mavjud.

Bozorda tashkil qilingan pullik xizmat turlari:

- tosh-tarozini foydalanishga berish xizmati
- katta yukni mahsus tarozida tortib berish xizmati
- yuk aravachalari xizmati
- bozor sovutgichlaridan foydalanish xizmati
- oziq-ovqat mahsulotlarini omborda saqlash xizmati
- avtomobil' to'xtash joyidan (stoyanka) foydalanish xizmati
- telefon xizmati
- poyafzal ta'mirlash xizmati
- soatsozlik xizmati
- pichoq, bolta, arra chaxlash xizmati
- hojatxona xizmati

Bundan tashqari, Namangan viloyatida Uchqo'rg'on tuman "Dehqon bozori"ining ham o'z o'rnini bor. Chunki, qadimdan Uchqo'rg'on aholisi o'zining savdogarligi va hunarmandchiligi bilan Farg'ona vodiysida mashhur bo'lgan. Bu bozorga qo'shni Norin, Uychi tumanlaridan, shuningdek, qo'shni Qirg'iziston Respublikasida ham savdogarlar kelib, o'zlarining ehtiyojlariga doir mahsulotlarni olib ketganlar va aksincha o'z mahsulotlarini sotish bilan shug'ullangan. Shuningdek, bu bozorga qirg'izlar juda ko'p miqdorda ot va qo'ylarni

haydab kelib sotganlar. Bozor XX asr mobaynida Namangan va Qirg'izistonning Moylisuv va Toshko'mir shaharlari o'rtasida bog'lovchi vazifasini o'tgan⁵¹.

Mazkur bozor Namangan viloyat Uchqo'rg'on tuman hokimining 2003 yil 3 noyabrdagi 603-qarori bilan tashkil etilgan.

Hozirgi kunda mazkur bozorda 194 ta savdo rastasi bo'lib, ularning barchasi bozorning o'zida joylashgan, bozorning boshqa hududlarda filiallari mavjud emas. Shundan do'konlar – 177 ta, umumiy ovqatlanish shaxobchalari – 1 ta, maishiy xizmat ko'rsatuvchi shaxobchalar – 16 tani tashkil etadi.

Bozor hududida mavjud kapital qurilmalari – ma'muriyat uchun alohida bino mavjud emas. Mana shu holat bozorning eng katta muammosi hisoblanadi. Bozorda bank filiallari va kassalari uchun bittadan xona ajratilgan. Laboratoriya uchun alohida xona, tarozixona uchun alohida xona, 2 ta hojatxona, 1 ta axlat tashlash maydonchasi bozor balansida mavjud.

Bozorda tashkil qilingan pullik xizmat turlari:

- tosh-tarozini foydalanishga berish xizmati
- katta yukni mahsus tarozida tortib berish xizmati
- yuk aravachalari xizmati
- hojatxona xizmati

Bundan tashqari, Namangan viloyatida Chortoq tuman “Dehqon bozori”ining ham o'z o'rnini bor. Chunki, qadimdan Chortoq aholisi o'zining savdogarligi, hunarmandchiligi va bog'bon-mirishkorlari bilan Farg'ona vodiysida mashhur bo'lgan. Bu bozorga qo'shni Yangiqo'rg'on, Uychi tumanlaridan, Namangan shahridan, shuningdek, qo'shni Qirg'iziston Respublikasidan ham savdogarlar kelib, o'zlarining ehtiyojlariga doir mahsulotlarni olib ketganlar va aksincha o'z mahsulotlarini sotish bilan shug'ullangan. Shuningdek, bu bozorga qirg'izlar juda ko'p miqdorda ot va qo'ylarni haydab kelib sotganlar.

⁵¹ Dala yozuvlari. Namangan viloyati Uchqo'rg'on tumani. 2014 yil.

Mazkur bozor Namangan viloyat Chortoq tuman hokimining 1996 yil 23 maydagi 163-qarori bilan tashkil etilgan⁵².

Hozirgi kunda mazkur bozorda 449 ta savdo rastasi bo'lib, ularning 339 tasi markaziy bozorda, qolgan 110 tasi filiallarda joylashgan. Bozorning 2 ta filiali mavjud bo'lib, ularning biri Hazratishoh qishlog'ida, yana biri Bog'iston qishlog'ida joylashgan. Bozor xodimlarining soni – 17 nafarni tashkil etadi. Bozorning tarkibiy tuzilishi.

Shundan do'konlar – 110 ta, umumiy ovqatlanish shaxobchalari – 10 ta, maishiy xizmat ko'rsatuvchi shaxobchalar – 17 tani tashkil etadi.

Markaziy bozoga kirib-chiqish joylari 4 ta bo'lib, shundan avtoulavlar uchun katta darvoza 2 ta. Savdo pavilionlar hamda ayvonlar soni 7 ta, markaziy bozorda 5 ta. Bozor rastalaridagi savdo joylari jami 600 ta, markaziy bozorda 520 ta, filiallarda 80 ta. Go'sht mahsulotlari shaxobchalari soni – 20 dona. Turg'un (statsionar) shaxobchalar jami soni 67 dona. Do'konlar 106 dona, umumiy ovqatlanish shaxobchalari – 5 dona, maishiy xizmat ko'rsatuvchi shaxobchalar – 56 dona.

Savdo va xizmat ko'rsatuvchi shoxobchalarda o'rnatilgan nazorat kassamashinalar soni 58 ta, to'lov terminallar soni 32 ta.

Bozor hududida mavjud kapital kurilmalari – ma'muriyat uchun alohida bino. Lekin, bozor hududining torligi bozorning eng katta muammosi hisoblanadi. Bozorda bank filiallari va kassalari uchun bittadan xona ajratilgan. Laboratoriya uchun alohida xona, tarozixona uchun alohida xona, 2 ta hojatxona, 1 ta axlat tashlash maydonchasi bozor balansida mavjud.

Bozorda tashkil qilingan pullik xizmat turlari:

- tosh-tarozini foydalanishga berish xizmati
- katta yukni mahsus tarozida tortib berish xizmati
- yuk aravachalari xizmati

⁵² Чортоқ тумани бозорининг жорий архиви маълумотлари. 1-варақ. – Б. 14.

- hojatxona xizmati

Shuningdek, Yangiqo'rg'on tuman hokimining 1999 yil 29 martdagi 256- sonli qarori bilan "Nanay dehqon bozori" MCHJ tashkil etilgan. Ushbu bozor 1996 yil 23 aprelda Namangan viloyat Adliya boshqarmasida tomonidan 26-raqamli guvohnoma bilan ro'yxatga olingan. Mazkur bozor asosan, Yangiqo'rg'on va Chortoq tumanlari aholisiga xizmat ko'rsatadi. Bozorga shuningdek, qo'shni Qirg'iziston Respublikasidan ham xaridorlar kelib turadi. Bozor asosan, qishloq xo'jaligi mahsulotlari va hayvon oldi-sotdisiga ixtisoslashgan. Bozorning 3 ta filiali mavjud bo'lib, uning 1 tasi Nanayda, 2 tasi Zarkent qishlog'ida joylashgan. Bozor xodimlarining umumiy soni 6 nafarni tashkil etadi⁵³.

Bozorda 322 ta rasta mavjud bo'lib, ularning 244 tasi markaziy bozorda, 78 tasi filiallarda joylashgan. Bozor xududida mavjud kapital qurilmalar mavjud:

- ma'muriyat uchun alohida bino;
- katta yukni mahsus tarozida tortib berish xizmati
- yuk aravachalari xizmati
- bozor sovutgichlaridan foydalanish xizmati
- oziq-ovqat mahsulotlarini omborda saqlash xizmati
- avtomobil' to'xtash joyidan (stoyanka) foydalanish xizmati
- telefon xizmati
- poyafzal ta'mirlash xizmati
- soatsozlik xizmati
- pichoq, bolta, arra chaxlash xizmati
- hojatxona xizmati

Xulosa sifatida shuni qayd etish lozimki, Namangan viloyatida mavjud bo'lgan 100 ga yaqin bozorlar mustaqillik yillarida hudud iqtisodiyotida muhim rol' o'ynab kelmoqda. Bozorlarning aksariyati o'ziga xos bo'lgan ixtisosliklarga ega. Yana bir

⁵³ Дала ёзувлари. Наманган вилояти Янгиқўрғон тумани Наанй қишлоғи. 2014 йил. Ахборотчи Шокир Ўринбоев.

muhim jihati shundaki, bozorlar haftaning ma`lum bir kunida ishlab, qolgan kunlari tozalik kuni deb e`lon qilingan.

XULOSA

Namangan bozorlari tarixini o'rganish natijasida va viloyatning ijtimoiy-iqtisodiy va madaniy jarayonlarga oid keng manbalar tahlili quyidagi xulosalarga asos bo'ldi:

- Namangan shahri Farg'ona vodiysidagi eng qadimgi aholi yashagan manzilgohlardan biri hisoblanib, Buyuk Ipak yo'li savdosida muhim o'rin tutgan. 1917 yilning fevral' inqilobi ta'sirida Turkistonda, xususan, Farg'ona vodiysi shaharlarida siyosiy va iqtisodiy jarayonlar faollashib, aholining turmush darajasida o'zgarishlar sodir bo'lgan.

- Sovet xokimiyatining zo'ravonlik va talonchilik siyosati Farg'ona vodiysi shaharlaridagi hayotni izdan chiqarib yubordi. Aholining turmushi, tang ahvolga tushdi, ocharchilik, kahatchilik avj oldi. Bunday sharoitda tibbiy xizmatga extiyoj kuchaydi, ammo bitta shifokor butun shahar axolisiga xizmat qilar edi. O'lkadagi hayot tarzining og'irligi aholi o'rtasida turli kasalliklarning keng tarqalishiga sabab bo'ladi. Kasalxonalarda axoliga tibbiy xizmat ko'rsatish hamda tibbiy jihozlar bilan ta'minlanish xolati talabga mutlaqo javob bermas edi. Kasalxonalar uchun viloyat sog'liqni saqlash boshqarmasi tomonidan ajratilgan mablag' etishmagan. Farg'ona vodiysi shaharlaridagi mavjud kasalxonalarning binolari vayronaga aylangan, isitish pechlari ishlamas, elektr energiyasi va suv bilan ta'minlanish ayanchli ahvolda edi.

- Shaharlardagi iqtisodiy tanazzul ocharchilikka olib keldi. Oziq-ovqat muammosi, "harbiy kommunizm" siyosati, xususiy mulkchilikka barham berib, zudlik bilan davlat mulkini kengaytirish oziq-ovqat solig'i siyosatining oqibati edi. Bol'sheviklar oziq-ovqat muammosi xal qilishda sinfiylik nuqtai-nazaridan yondashib, erli xalq manfaatlarini oyoq-osti qilishgacha bordilar. Oziq-ovqat muammasini bartaraf qilishda Turkiston rahbariyati bir necha marta Markazga murojaat qilganiga qaramasdan, o'lkani g'alla bilan ta'minlashda oqsashlar davom etdi. Ocharchilik hukm surayotgan hududlardan Turkiston o'lkasiga, shuningdek

Farg'ona vodiysiga ko'chirib keltirilgan ochlarga mahalliy axoli yordam berib, bag'rikenglik va mehr-muruvvat namunalarini ko'rsatdilar.

- Turkistonda bol'sheviklarni etarlicha tayyorgarliksiz va zo'ravonlik bilan barcha mulklarni natsionalizatsiya qilishi oqibatida o'lka iqtisodiyoti izdan chiqib ketdi. 1918 yilning birinchi yarmidan boshlab o'lkadagi shuningdek, Farg'ona vodiysi shaharlaridagi mavjud barcha yirik sanoat tarmoqlari paxta tozalash, yog'moy korxonalar, banklar, bosmaxonalar, temir yo'l, ko'mir konlari va boshqa bir qator ishlab chiqarish tarmoqlarining bir qismi davlat tasarrufiga o'tadi. Ammo natsionalizatsiya qilinib, davlat mulkiga aylantirilgan korxonalar yaroqsiz holga kelib qoldi. Buning natijasida xalq xo'jaligi vayron bo'la boshladi, mavjud zavodlar to'xtab qoldi.

– Namangan viloyati bozorlarining xonliklar davrida faoliyati, ularning mam-lakat iqtisodiyotida tutgan o'rni va o'ziga xos tomonlari mavjud bo'lgan;

– Rossiya imperiyasi davrida savdo-sotiq munosabatlari va bozorlar faoliyati yuzasidan yuz bergan o'zgarishlarni Namangan bozorlari misolida o'rganish va qiyosiy tahlil qilindi.

Tadqiqot natijalariga asoslangan holda quyidagi taklif va tavsiyalar ishlab chiqildi:

1. Turkistonda shuningdek, Farg'ona vodiysi shaharlaridagi ijtimoiy-iqtisodiy va madaniy jarayonlarni keng o'rganish maqsadida oliy o'quv yurtlarining ijtimoiy yo'nalishlarda shaharlar tarixi bo'yicha mahsus kurslar tashkil etish;
2. Kelgusida Namangan viloyati bozorlarining ko'pgina jihatlarini butun tafsiloti bilan o'rganishga yordam berishi mumkin bo'lgan hujjatlar to'plamini chop ettirish lozim.
3. Oliy o'quv yurtlarining Tarix va iqtisodiyot yo'nalishlarida "Farg'ona vodiysi bozorlari tarixi" nomli o'quv kursi tashkil etilishi lozim.

FOYDALANILGAN MANBA VA ADABIYOTLAR RO'YXATI

I. Rasmiy adabiyotlar ro'yxati:

- 1.1. Каримов И. А. Ватан саждагоҳ каби муқаддасдир. – Тошкент: Ўзбекистон, 1995. – 176 б.
- 1.2. Каримов И. А. Ўзбекистон XXI аср бўсағасида: хавфсизликка таҳдид, барқарорлик шартлари ва тараққиёт кафолатлари. – Тошкент: Ўзбекистон, 1997.– 325 б.
- 1.3. Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамасининг Тарих институти фаолиятини такомиллаштириш тўғрисидаги қарори // Халқ сўзи. 1998 йил 28 июль.
- 1.4. Каримов И. А. Тарихий хотирасиз келажак йўқ // Биз ўз келажакимизни ўз қўлимиз билан қураимиз. Т. 7. – Тошкент: Ўзбекистон, 1999. – Б. 132–155.
- 1.5. Каримов И. А. Юксак маънавият–енгилмас куч. – Тошкент: Маънавият, 2008. – 176 б.
- 1.6. Каримов И. А. Ўзбекистон мустақилликка эришиш остонасида. – Тошкент: Ўзбекистон, 2011. – 439 б.
- 1.7. Каримов И. А. Демократик ислохотларни янада чуқурлаштириш ва фуқаролик жамиятининг шакллантириш – мамлакатимиз тараққиётининг асосий мезонидир. 19- жилд. – Т.: Ўзбекистон, 2011. – 345 б.
- 1.8. Каримов И. А. Тарихий хотира ва инсон омили – буюк келажакимизнинг гаровидир. – Т.: Ўқитувчи, 2011. – 144 б.
- 1.9. Каримов И. А. Бизнинг йўлимиз демократик ислохотларни чуқурлаштириш ва модернизация жараёнларини изчил давом эттириш йўлидир. – Т.: Ўзбекистон, 2012. – 312 б.
- 1.10. Каримов И. А. Мустақиллик – барча эзгу режа ва марраларимизнинг мустақам мезонидир // Ўзбекистон Республикаси Президенти И. А. Каримовнинг давлат мустақиллигининг 22 йиллигига бағишланган тантанали маросимдаги табрик сўзи. Халқ сўзи. 2013 йил 2 сентябрь.

1.11. Каримов И. А. Амалга оширилаётган ислохотларимизни янада чуқурлаштириш ва фуқаролик жамияти қуриш – ёруғ келажагимизнинг асосий омилидир // Ўзбекистон Республикаси Президенти И. А. Каримовнинг Ўзбекистон Республикаси Конституциясининг 21 йиллигига бағишланган тантанали маросимдаги маърузаси. O`zbekiston ovozi. 2013 йил 10 декабрь.

1.12. Каримов И. А. Тинчлик ва аҳиллик – мамлакатимиз тараққиёти ва халқимиз фаровонлигимиз асосидир // Ўзбекистон Республикаси И. А. Каримовнинг 9- май “Хотира ва қадрлаш куни” муносабати билан сўзлаган нутқи. O`zbekiston ovozi 2014 йил 10 май.

1.13. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2014 йил 6 февралдаги ПҚ-2124-сонли “Ўзбекистон Республикасида ёшларга оид давлат сиёсатини амалга оширишга қаратилган қўшимча чора-тадбирлар тўғрисида”ги Қарори // Turkiston. 2014 йил 8 февраль.

II. Ilmiy adabiyotlar:

2.1. Абдуллаев О. Наманган вилояти. – Наманган, 1996. – 150 б.

2.2. Абдуллаев О. Фарғона водийси: ижтимоий-иқтисодий ривожланиш жараёнлари. – Наманган, 2000. – 290 б.

2.3. Абдурахимова Н. Туркистонда чор мустамлакачилиги тизими. – Тошкент: Академия, 2002. – 240 б.

2.4. Агзамова Г. А. Сўнгги ўрта асрлар Ўрта Осиё шаҳарлари: умумийлик ва хусусийлик (шаҳар деворлари мисолида) // Ўзбекистон тарихи. – Тошкент. – 1999. – №2. – Б. 56 – 63.

2.5. Акрамов З. М. Наманганская область (Экономико-географический очерк). –Ташкент: Изд-во Академии наук Узбекской ССР, 1955. – 176 с.

2.6. Акрамов З. М. Фарғона водийси. –Тошкент: Фан, 1957. – 87 б.

2.7. Алламуродов Д., Гафуров А. Очерки истории Ферганской области в советский период. – Ташкент: Фан, 1980. – 168 с.

2.8. Алимова Д. А. Ўзбекистон тарихи (1917-1991 йй). –Тошкент: Шарқ, 2002. – 416 б.

- 2.9. Ата-Мирзаев О., Катанов И. Фарғона водийси шаҳарлари. (Демографияси тўғрисида баъзи фикрлар). –Тошкент: Ўзбекистон, 1972. – 32 б.
- 2.10. Аҳмедов Э. А. Ўзбекистон шаҳарлари. – Тошкент: Ўзбекистон, 1991. – 221 б.
- 2.11. Вахобова Н. Ўзбекистоннинг янги шаҳарлари. –Тошкент: Ўзбекистон, 1973. – 40 б.
- 2.12. Губаева С. С. Население Ферганской долине в конце XIX – начале XX. (этнокультурные процессы) –Ташкент: Фан, 1991. – 130 с.
- 2.13. Иванов П. П. Очерки по истории Средней Азии. – Москва, 1958. – 182 с.
- 2.14. Мадрахимов З. Ш. Қўқон хонлигида савдо муносабатлари тарихи. – Тошкент: Янги нашр, 2014.
- 2.15. Мадрахимов З. Ш. Наманганинг Қўқон хонлиги савдо алоқаларида тутган ўрни. // Мозийдан Садо. – Тошкент, 2008. –№2. – Б. 28 – 30.
- 2.16. Мадрахимов З. Ш. Наманган–Қўқон хонлигининг иқтисодий марказларидан бири // “Тарих тилга кирганда...” Илмий тўплам. – Наманган, 2008. – №2. – Б. 19–25.
- 2.17. Мирзалиев Э. Базарова М. Наманганинг XIX аср охири – XX аср бошидаги социал-иқтисодий ва маданий ривожланиши. – Тошкент: Қатортол-камолот, 1998. – 168 б.
- 2.18. Рўзибоев Т., Хожимирзаев М. Наманган области. Справочник. –Ташкент: Узбекистан, 1981. – 176 б.
- 2.19. Рузйбаев Т. Ходжимирзаев М. Наманганская область. – Ташкент: Узбекистан, 1981. – 166 с.
- 2.20. Санакулов Х. Чуст тарихи. Этнографик очерк. –Тошкент., 1991. – 109 б.
- 2.21. Файзиев Н. Ўзбекистон янги шаҳарларининг аҳолиси. –Ташкент: Фан, 1964. – 36 б.
- 2.22. Қосимов Й. Наманган тарихидан лавҳалар. (1917 йилгача). – Тошкент: Фан, 1990. – 56 б.

